

VOLUME 1 ISSUE 5

## "CONFERENCE ON UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH 2023"

zenodo



## OUR FIELDS

- Exact Sciences
- Natural sciences
- Medical sciences
- Technical sciences
- Economics
- Philological sciences
- Pedagogical sciences
- Social and humanitarian sciences
- Psychological sciences
- Arts and cultural sciences
- Physical education and sports



+998 (88) 808-21-07



<http://universalpublishings.com>



"RESEARCH SCIENCE AND INNOVATION HOUSE" MCHJ

# "CONFERENCE ON UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH 2023"



+998 (88) 808-21-07

<http://universalpublishings.com>

VOLUME 1, ISSUE 5





«Conference on Universal Science Research 2023» ilmiy konferensiyasi:

30.06.2023 yil.

Ushbu to'plamda «Conference on Universal Science Research 2023» ilmiy konferensiyasi 2023 yil 1-soni 6-qismiga qabul qilingan maqolalar nashr etilgan.

Jurnal tarkibidagi barcha maqolalarga DOI unikal raqami biriktirilib, **Zenodo**, **Open Aire**, **Google Scholar** xalqaro ilmiy bazalarida indekslandi.

OAK tomonidan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan jurnallar ro'yxatidagi milliy jurnallarda chiqarilgan maqolalar sifatida rasman tan olinadi.

**Asos:** O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxati 3-sahifasi. – Toshkent: 2019. – 160 b.

Konferensiya materiallaridan professor-o'qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistrantlar, talabalar, litsey-kollejlar va maktab o'qituvchilari, ilmiy xodimlar hamda barcha ilm-fanga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Eslatma! Konferensiya materiallari to'plamiga kiritilgan ilmiy maqolalardagi raqamlar, hisobotlar, ma'lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

“RESEARCH SCIENCE AND  
INNOVATION HOUSE” MCHJ



## TAHRIRIYAT

**Bosh muharrir:** Eshqarayev Sadridin Chorievich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tibbiyot va tabiiy fanlar kafedrası mudiri, kimyo fanlari falsafa doktori, dotsent Termiz, O‘zbekiston.

**Mas’ul kotib:**

Boboyorov Sardor Uchqun o‘g‘li Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali talabasi

**Nashrga tayyorlovchi:**

Eshqarayev Samariddin Sadridin o‘g‘li Termiz muhandislik-texnologiya instituti talabasi

## TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

**Texnika fanlari muharriri,** Eshqarayev Ulug‘bek Chorievich – Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrası dotsenti, texnika fanlari nomzodi, Denov, O‘zbekiston.

**Texnika fanlari muharriri** Babamuratov Bekzod Ergashevich – Termiz davlat universiteti fizik kimyo kafedrası dotsenti, falsafa fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

**Kimyo fanlari muharriri** Mirabbos Xojamberdiev Ikromovich- Berlin Technische Universität dotsenti, kimyo fanlari doktori, Berlin, Germaniya

**Kimyo fanlari muharriri,** Eshqurbonov Furqat Bozorovich – Termiz muhandislik-texnologiya instituti, kimyo fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

**Iqtisodiyot fanlari muharriri** Otamurodov Shavkat Tillayevich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti prorektori, iqtisod fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

**Ijtimoiy va gumanitar fanlar muharriri,** Xudoyberdiyev Xursand Xudoyberdiyevich – Termiz muhandislik-texnologiya instituti, ijtimoiy-gumanitar fanlar doktori, Termiz, O‘zbekiston.





**Tibbiyot fanlari muharriri** Otamurodov Furqat Abdulkarimovich, Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali direktori, Termiz, O'zbekiston tibbiyot fanlari falsafa doktori, Termiz, O'zbekiston.

**Biologiya fanlari muharriri** Nurova Zamira Annakulovna Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali. Termiz, O'zbekiston, biologiya fanlari doktori, dots., Termiz, O'zbekiston.

**Tibbiyot fanlari muharriri** Turabayeva Zarina Kenjabekovna Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali, tibbiyot falsafa fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

**Sotsiologiya fani muharriri** Eryigitova Lobar Qodirovna Termiz muhandislik-texnologiya instituti, falsafa sotsiologiya fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

**Filologiya fanlari muharriri** Jo'rayeva Ramziya Abdurahimovna Qo'qon davlat pedagogika instituti. Qo'qon, O'zbekiston filologiya fanlari fanlari doktori (PhD), katta o'qituvchi.

**Fizika-matematika-fanlari muharriri** Bobamuratov Ulug'bek Erkinovich Termiz muhandislik-texnologiya instituti, falsafa fanlari doktori, fizika-matematika-fanlari, Termiz, O'zbekiston.

**Tibbiyot fanlari muharriri** Axmedov Kamoliddin Xakimovich Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali 1-son davolash fakulteti dekani, tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Tibbiyot fanlari muharriri** Vohidov Alisher Shavkatovich Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Umumiy xirurgiya, bolalar xirurgiyasi va bolalar urologiyasi kafedrasini mudiri Tibbiyot fanlari doktori, professor

**Gumanitar fanlar muharriri** Rahmonov Abduqahhor Abdusattorovich Ma'naviy-axloqiy tarbiya va yoshlar bilan ishlash bo'yicha direktor o'rinbosari, falsafa fanlari doktori (PhD)



## INGLIZ TILINI O'QITISHDA O'YINLARDAN FOYDALANISHNING ZAMONAVIY USULLARI.

Xilola Abdurasulova Akramjon qizi


*Farg'ona davlat universiteti Ingliz tili va adabiyot fakulteti 2-kurs*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ingliz tili fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning samarasi va o'ziga xos usullari haqida so'z boradi. Maqola davomida ingliz tili darslarida olib boriladigan turli zamonaviy innovatsion texnologiyalarning turlari, ulardan foydalanish usullariga alohida to'xtalib o'tilgan. Maqola so'nggida ilmiy mulohazalar va fikrlar berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** innovatsiya, texnologiya, samaradorlik, ixtisoslashtirish, axborotkommunikatsiya, telekommunikatsiya.

Yangi davr hozirgi kun o'qituvchilariga yangi vazifa va bir qancha ma'suliyatlarni yuklaydi. Zamonaviy texnologiyani kirib kelishi bilan ingliz tilini o'qitish an'anasi sezilarli darajada o'zgardi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A Karimov tomonidan chet tillarni yanada takomillashtirib o'qitish yuzasidan 2012-yil 10-dekabrda PQ-1875 ya'ni "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Bu qarorga ko'ra chet-tili o'qituvchilariga zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish va o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarda erkin so'zlasha oladigan qilib tayyorlash ma'suliyati yuklatildi. Qaror bir necha banddan iborat bo'lib, aynan qarorning to'qqizinchi bandida innovatsion texnologiyalardan foydalanish haqida batafsil aytib o'tilgan.

Ma'lumki, darsning turli xil o'yinlarasosida o'tilishi o'quvchilarning imkoniyatlarini namoyish etish, diqqatni jamlash, bilim va ko'nikmalarini oshirish va kuchli bo'lishlarini ta'minlaydi. O'yin texnologiyasidan foydalanishning asosini o'quvchini faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyat tashkil etadi. Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda barqaror o'rnini topish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. Har qanday o'yin zamirida umumiy qabul qilingan ta'lim prinsiplari, taktikasi yotishi kerak. O'quv o'yinlariga o'quv predmetlari asos qilib olinishi kerak. O'yinlar jarayonida o'quvchi oddiy darsga qaraganda bu mashg'ulotga qiziqibroq yondashadi va bemalol faoliyat ko'rsatadi. Ta'kidlash lozimki, o'yin eng avallo, o'qitishning bir usulidir. O'quvchilar o'yinli darslarga qiziqib qatnashadilar, g'alaba qozonishga intiladilar, o'qituvchi ular orqali o'quvchiga ta'lim-tarbiya ham beradi. O'quvchi inglizcha o'yin o'ynab, gapira olarkanman, tinglab tushuna olarkanman, yoza olarkanman, deb ishonadi, qiziqadi.




Tajriba shundan dalolat beradiki, har qanday o'yinda ishtirokchilarning malakasi va yoshidan qat'iy nazar, ular o'ng'aysiz holatga tushib qoladilar. Shuning uchun o'yinni o'quv amaliyotiga tadbiiq qilishdan avval quyidagi pedagogik-psixologik masalalar hal etilishi zarur. Har bir o'quvchi o'yinga tayyorgarlik ko'rayotganda quyidagilarni bilishi lozim: o'yinning maqsadini; o'yinning vazifasini; o'yinning rejadagi qaysi mavzuga taalluqliligini; avvalgi o'yinlarda shakllangan malaka va ko'nikmalarni keyingi o'yinlarda ham qo'llay olishi. Biz bilamizki, hozirgi ta'lim jaroyonida o'quvchi sub'ekt bo'lishi lozim. Bunda ko'proq interfaol metodlarga e'tiborni qaratish ta'lim samaradorligini oshiradi. Ingliz tili darslariga qo'yilgan eng muhim talablardan biri mustaqil fikrlashga o'rgatishdir.

Tadqiqot jarayonida ingliz tilini o'rgatish va o'rganishning mashhur usullaridan, internet manbalaridan foydalanildi. Maqolani yozish davomida nazariydeduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, mantiqiylik tamoyillardan foydalanildi. Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'rgatish va o'rganish eng samador usullardan biridir. Bu jarayonda, jumladan: – kompyuterlardan foydalanganda o'quvchi chet tilidagi video roliklarni, namoyishlarni, dialoglarni kino yoki multfilmlarni ham ko'rishi ham eshitishi mumkin; – chet tilidagi radio eshittirishlar va televideniedagi dasturlarni eshitish va tomosha qilish mumkin; – ancha an'anaviy usul hisoblanadigan magnitafon va cassetalardan foydalanish; – CD pleyerlardan foydalanish mumkin. Bu texnik vositalardan foydalanish o'quvchilarning chet tilini o'rganishlari jarayonini qiziqarliroq va samaraliroq bo'lishini ta'minlaydi.

O'yin texnologiyasidan foydalanishning asosini o'quvchini faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyat tashkil etadi. Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda barqaror o'rnini topish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. Har qanday o'yin zamirida umumiy qabul qilingan ta'lim prinsiplari, taktikasi yotishi kerak. O'quv o'yinlariga o'quv predmetlari asos qilib olinishi kerak. O'yinlar jarayonida o'quvchi oddiy darsga qaraganda bu mashg'ulotga qiziqibroq yondashadi va bemaol faoliyat ko'rsatadi. Ta'kidlash lozimki, o'yin eng avallo, o'qitishning bir usulidir. O'quvchilar o'yinli darslarga qiziqib qatnashadilar, g'alaba qozonishga intiladilar, o'qituvchi ular orqali o'quvchiga ta'lim-tarbiya ham beradi. O'quvchi inglizcha o'yin o'ynab, gapira olarkanman, tinglab tushuna olarkanman, yoza olarkanman, deb ishonadi, qiziqadi

Xulosa qilib aytganda, Ingliz tili darslarida innovatsion usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, nutqi ravonlashadi, tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanadi. Bunday usullar





o'quvchida bilimga ishtiyoq uyg'otadi. O'quvchi darslarga puxta hozirlik ko'rishga intiladi. Bu esa o'quvchilarni ta'lim jarayonining faol sub'yektlariga aylantiradi. Ta'lim tizimi o'z oldiga erkin fikrlovchi, barkamol, yetuk shaxsni tarbiyalashni vazifa qilib qo'yar ekan, kelgusida biz bo'lajak o'qituvchilar innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish yo'llarini yanada mukammalroq ishlab chiqshimizimiz bilan o'z xissamizni qo'shishimiz mumkin. Ingliz tili darslarida innovatsion usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, nutqi ravonlashadi, tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanadi. Bunday usullar o'quvchida bilimga ishtiyoq uyg'otadi. O'quvchi darslarga puxta hozirlik ko'rishga intiladi. Bu esa o'quvchilarni ta'lim jarayonining faol sub'yektlariga aylantiradi. Ta'lim tizimi o'z oldiga erkin fikrlovchi, barkamol, yetuk shaxsni tarbiyalashni vazifa qilib qo'yar ekan, kelgusida biz bo'lajak o'qituvchilar innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish yo'llarini yanada mukammalroq ishlab chiqshimizimiz bilan o'z xissamizni qo'shishimiz mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Bekmuratova U. B. "Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" mavzusida referat. Toshkent — 2012 yil
2. Мухаммаджонов, Ф. М. О'рта maktab o'quvchilarining ingliz tili o'rganishda duch keladigan qiyinchiliklari
3. Johnson, K. E. The Sociocultural Turn and Its Challenges for Second Language Teacher Education. // TESOL Quarterly., – London., 2006.
4. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. – London., 2001.
5. Пассов Э. И. Общительный метод обучения иностранного разговора. – Москва., 1985.



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILINI O'QITISH METODIKASI

**Madina Ahmedova**

*Farg'ona davlat universiteti Ingliz tili va adabiyot fakulteti 2-kurs*

**Annotatsiya.** Ingliz tili o'quv predmetining xususiyatlarini yoritishda unga turlicha yondashishlar mavjud. Ushbu maqolada bolalarga ingliz tilini mazmunli va qiziqarli o'rgatish usullari bilan tanishishingiz mumkin.

**Kalit so'zlar:** aralash texnika, qiziqarli o'yinlar, boshlang'ich sinflar, zamonaviy innovatsion metodlar, pantomima.

Mamlakatimizda jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi xorijiy tillarni boshlang'ich sinflarda va kommunikativ maqsadlarda o'qitilishiga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytirdi. Ingliz tili boshlang'ich ta'limga o'quv predmeti sifatida kiritildi, maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy tillarni o'qitish yo'nalishi bo'yicha mutaxassislar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Boshlang'ich ta'limda ingliz tili o'qitishning zamonaviy maqsad, mazmun va texnologiyalarini takomillashtirish, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga ingliz tili o'qitish amaliyotida to'plangan an'anaviy va xorijiy tajribalarni umumlashtirishga xizmat qiluvchi o'quv qo'llanmalarining yetishmasligi oqibatida mazkur soha uchun pedagog kadrlar tayyorlash jarayonida yetarlicha samaradorlikka erishilmayapti.

Bugun jahon hamjamiyati o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir". Ayniqsa, boshlang'ich ta'limda ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lgan qarorlardan biri bu O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-1875-soni Qaroridir. Ushbu qarorga muvofiq chet tillarini, asosan, ingliz tilini boshlang'ich sinfdan boshlab o'rgatish, ularni chet tillarini o'rgatishga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish uchun barcha umumta'lim maktablarda 1-sinfdan boshlab ingliz tili darslarini turli xil qiziqarli o'yinlar tarzida o'qitish va shu bilan birga o'quvchilarning og'zaki nutqini ham rivojlantirish, 2-sinfdan boshlab esa, alifbo, o'qish va grammatikani o'qitishni zamonaviy, innovatsion usullar orqali o'tish bosqichma-bosqich boshlandi. So'nggi paytlarda ingliz tilini o'rganadigan har qanday yoshdagi odamlar soni juda ko'paymoqda. Buning sababi, hayot jarayonida ingliz tilini bilmasdan yashash qiyinlashib bormoqda. Ammo til o'rganish ham yosh davrlariga bog'liq. Hatto, olimlar bolalar kattalarga nisbatan tilni tez va oson o'zlashtirishni isbotlashgan. Bolalarda til o'rganishga bo'lgan tabiiy moyillik, ularda taqlid qilish xususiyati kuchli ekanligi,

kattalarga qaraganda bolalar vaqtining ko'pligi va o'rgangan ma'lumotlarni tez xotirada saqlashi buning asosiy sabablaridandir.

Xulosa qilib aytganda, kichik yoshdagi bolalarga til o'rgatish majburiyat sifatida emas, qiziqarli mashg'ulot tarzida olib borilishi, bir necha samarali usullardan foydalanib dars o'tish ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bolalarga chet tillarini o'rganish qanchalar muhimligini tabiiy sharoitlar orqali to'g'ri tushuntirib borilishi darkor. Chunonchi, buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy ham ko'plab xorijiy tillarni mukammal bilgan, bu tillarda bemalol gaplasha olgan hamda shu tillarda ijod qilgan. Bunday imkoniyat allomaning dunyo ilm- fanini o'rganishga, buyuk ishlarni amalga oshirishiga turtki bo'lgan. Zero, Navoiy bobomiz aytganlaridek, «Til bilgan — el biladi».

Fan asoslarini o'rgatuvchi predmetlarda o'quvchilarga ushbu sohaga oid bilimlar bayon etiladi. Tarbiyaviy yo'nalishdagi predmetlar o'quvchilarda nafosat va go'zallikni tarkib toptiradi. Faoliyatni o'rgatish predmetlari jismoniy chiniqish, mehnat qilish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Lingvodidaktikaning ob'yekti bo'lgan tilga oid o'quv predmetlarini tahlil etganda, ular orasida o'xshashlik va keskin farqlar borligi namoyon bo'ladi. Tillar orasidagi umumiylik shundan iboratki, har uchalasini o'rganishda ham o'quvchi nutq faoliyati bilan mashg'ul bo'ladi. Ushbu tillarda shakllangan ko'nikma va malakalar tufayli boshqa fan va sohalarga oid bilim (axborot)lar o'zlashtiriladi, boshqacha aytganda, tilga oid o'quv predmetlari muloqot (kommunikativ) vazifasini bajaradi.

Xulosa chiqaradigan bo'lsak, birinchi va ikkinchi sharoitlarda chet tilni muloqot vositasi sifatida o'zlashtirish uchun tabiiy muhit mavjud. Chunki birinchidan, vaqt cheklanmagan, ikkinchidan, jonli nutq vaziyatlarida axborotning to'g'ri talqin etilishini ta'minlovchi omillar mavjud, uchinchidan, o'rganilayotgan chet tilda muloqot qilinayotganturli ijtimoiy vaziyatlarga tushib qolish kuchli ehtiyoj va yuqori motivatsiyaga sabab bo'ladi, to'rtinchidan, o'rganilayotgan chet tilda e'tibor shaklga emas, mazmunga qaratiladi, ingliz tilijonli muloqotda tajribada sinab ko'rib, mustaqil fahmlab o'rganiladi. Eng asosiysi, fikr ifodalashga shaxsiy tashabbus ko'rsatiladi. Shu sababdan, tabiiy ta'lim sharoitida ingliz tili o'zlashtiriladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Bekmuratova U. B. "Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" mavzusida referat. Toshkent — 2012 yil
2. Мухаммаджонов, Ф. М. О'рта maktab o'quvchilarining ingliz tili o'rganishda duch keladigan qiyinchiliklari
3. Johnson, K. E. The Sociocultural Turn and Its Challenges for Second Language Teacher Education. // TESOL Quarterly., – London., 2006.



4. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. – London., 2001.
5. Пассов Э. И. Общительный метод обучения иностранного разговора. – Москва., 1985.
6. Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora –tadbirlari to'g'risida (PQ-1875-son) Xalq so'zi gazetasi. 2012yil. 12-dekabr.

**Hozirgi zamon O'zbek tili va Ingliz tillarida onomotopik so'zlarni  
o'rganishning nazariy asoslari**

**Nilufar Aliboyeva Mahamatali qizi**

**Qo'qon Davlat Pedagogika Instituti dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha  
falsafa doktori (PhD).**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada onomotopik so'zlarning sintaktik-semantik tahlili o'zbek va ingliz tillaridagi misollar asosida yoritib beriladi va ularning keng qo'llanilishi, flektiv tillar jumladan ingliz tilida mustaqil turkum sifatida taqlidlarning o'rnini xaqida so'z yuritiladi. Gap strukturasi onomotopik so'zlarning muhim ahamiyati kasb etishni inobatga olgan holda, mavzuni yoritib berishda badiiy ingliz adabiyotlaridan keng foydalanildi.

**Kalit so'zlar:** taqlidiy va tasviriy so'zlar, tasviriy ifodalar, tasviriy vosita, ot, fe'l, gap bo'lagi, tovushga taqlid, fleksiya, agglutinasiya.

Onomotopik (taqlid) so'zlar-ma'no va shakliy xususiyatlariga ko'ra, so'z turkumlari sirasida alohida har hil sintaktik-semantik guruhni tashkil qiluvchi, kishilar, hayvonlar va jonli, jonsiz narsalarning tovushini, harakat-holat va hodisa obraziga taqlidni ifodalaydi. Tovushga taqlid so'zlar eshitib, obrazga taqlid so'zlar ko'rish bilan aloqadordir. Hozirgi kunda onomotopik so'zlarga mustaqil so'z turkum deb qaralmoqda. Taqlid so'zlar leksik va formal xususiyatlariga ko'ra alohida mustaqil gruppani tashkil etadi. Bu guruhga kiruvchi so'zlar his-hayajon, tuyg'u yoki buyruq-xitobni ifodalamaydi. Ular atrofdagi o'rab turgan muhitda (odam, hayvon, qush, jonsiz predmetlarda) uchraydigan ovoz (tovush)larni qayta tiklab, predmetlar harakati tasvirini esa harakat obrazi sifatida ifodalaydi. Onomotopik so'zlar bu o'zlarning ma'nolaridan kelib chiqib namoyon bo'ladigan so'zlardir. Onomotopik so'zlar tushunchasini misollarsiz tushinishda qiyinchiliklar tug'iladi. Onomotopik so'zlarning hosil bo'lishiga ko'ra quyidagi leksik-semantik guruhlarga bo'lish mumkin.

1. Suyuqliklar bilan bog'liq bo'lgan onomotopik so'zlar: bloop, splash, spray, sprinkle, squirt, drip, drizzle
2. Tovushlar bilan bog'liq bo'lgan onomotopik so'zlar: giggle, growl, grunt, gurgle, mumble, murmur, bawl, belch, chatter, blurt
3. To'qnashuv bilan bog'liq bo'lgan onomotopik so'zlar: bam, bang, clang, clank, clap, clatter, click, clink, ding, jingle, screech, slap, thud, thump
4. Havo oqimi bilan bog'liq bo'lgan onomotopik so'zlar: flutter, fisst, fwoosh, gasp, swish, swoosh, whiff, whoosh, whizz, whip, whisper.
5. Hayvon tovushlari bilan bog'liq bo'lgan onomotopik so'zlar: bark, buzz, arf, baa, cheep, chirp, cluck, hiss, meow.

Tovushga taqlid masalasi bizning eramizdan ilgariyoq tilshunos olimlarning diqqatini o'ziga jalb etgan: biz tovushga taqlid xaqidagi ilk fikrlarni o'sha davrlarda aytilganligini ko'ramiz. Ma'lumki tabiatdagi jonli va jonsiz predmetlar turli xil tovushlar chiqaradi. Kishilar o'z turmush tajribalarida ba'zan ana shunday tovushlarga taqlid qiladilar[1,35]. Tovushni qabul qiluvchi organimiz-----quloq tabiatdagi tovushlarni asosan to'g'ri aks ettiradi. Vladimir Ilich Lenin "simvollar" yoki (ieorogliflar) nazariyasini tanqid qilib, o'zining "Материализм ва эмпириокритицизм" asarida "Surat xech qachon model bilan to'la to'kis tenglasha olmasligi shubhasizdir" deb yozgan edi.

V.I.Leninning bu nazaryasi tilshunoslikdagi tovushga taqlid nazariyasiga tatbiq qilinsa, tildagi taqlid so'zlarni xam tabiatdagi so'zlar bilan tenglashtirish, uning xuddi o'zi deb qarash noto'g'ri ekanligini anglash juda osondir.

Masalan: **Guldur** etib, bulut tarqab,

**Yalt-yult** etib, chaqmoq chaqdi.

Ishchi bobo, seskansangchi,

Sharqqa quyosh chinlab chiqdi.

**shir-shir** etib

Ishchi bobo, tez ochsangchi

Pindiq ochsin yosh navdalar!

Bu misoldagi **Guldur, shir-shir** kabi taqlid so'zlar bulut tarqalishida, manfiy va musbat zaryadlarning to'nashidan kelib chiqqan tovushning yoki shamol harakati natijasida paydo bo'lgan tabiatdagi tovushning o'zginasi emas, balki undan farq qiladi. Ammo biz talaffuz qilgan tovush o'sha tovushlarga ancha yaqinlashib boradi va u shartli ravishda taqlid deb olinadi. Yozma nutqda esa taqlidni berish ham qiyinroq, chunki "har qanday eng yahshi alfavit,hatto, lingvistlar tomonidan yaratilgan transkripsiyalar ham kishi nutqini" ayniqsa, undagi taqlid so'zlarni to'liq aks ettira olmaydi.

Tovushga taqlid so'z ham til ihtiyoriga, uning grammatikasi ixtiyoriga o'tgach, social qiimmat kasb etadi. Shundan so'ng u lingvistikaning tekshirish obekti bo'la oldi. Shunday bo'lgach, taqlid so'zlarni so'z deb atash mumkunmi yoki yo'qmi, degan savol tug'iladi. Agar u so'z bo'lmaganida edi, lingvistikaning o'rganish obekti ham bo'la olmas edi. Ammo bu masalaga bir tomondan yondoshish juda katta chalkashliklarga olib kelishi mumkun[3,34]. Umuman, so'z, tushuncha, so'z bilan tushuncha o'rtasidagi munosabat masalasida olimlarning fikri xali bir nuqtaga birlashgani yo'q.

Tovushga taqlid so'zlar tushuncha anglatadimi, ularni so'z deb atash mumkunmi degan masala ham ishlanmagan, chalkash masalalardan sanaladi, quyidagilar orqali



ularni ko'rib chiqamiz: tilda har qanday so'z *umumlashtirgani*<sup>68</sup> kabi taqlid so'zlar xam, to'la-to'kis bo'lmasa-da, umumlashtirish xususiyatiga egadir. Tasviriy so'zlarning bu xususiyati ular substantivlashganda, boshqa so'zlar grupasiga o'tganda, boshqa so'z turkumlari vazifasida qo'llanganda, ularga aniqlikdan mavhumlikka siljish paydo bo'lganida yana ham ochiq ko'rinadi. Masalan: dakadangbozlik, chaqchaqlik kabi. **Chaqchaqlik** avjiga mindi (M.Ismoiliy, F.t.o)yoki: **bitbidiq-bitbidiq** degan ovoz eshitildi, **qu-qu, vov-vov** degan tovush *xamon takrorlanadi* degan gaplarni biz *qor yog'yapti, odam gapiryapti* deb tushunmaganimiz kabi, *yog'och qars etib sindi, oldin havo gumbur- gumbur etdi, keyin yomg'ir quydi* kabi gaplardan *qush sayradi, it hurdi* degan tushunchani anglamaymiz. Demak, *bitbidiq, qu-qu-qu, vov-vov, qars-qars, gumbur* kabi so'zlarni o'zbek tilida so'zlashuvchilarning xammasi xam bir xilda tushunadilar.

Tovushga taqlid so'zlar tashqi moddiy dunyoning tovush tomonidan ko'rinishi haqidagi tushunchalarni anglatadi. Tushunchani anglatish jihatidan so'zlar bir birlaridan farq qiladilar. Bir hil so'zlar borki, ular nominativlik funksiyasini bajarib, predmetlik manosi bilan ko'rinadi, ikkinchi bir xil so'zlar esa umumiy funksional va relyativ ma'noda ko'rinadi. Taqlid so'zlarni ana shu ikkinchi gruppada ichida qarash mumkin. Lingvistika qushlarning sayrashidan, itlarning xurishidan, mushukning miyovlashidan paydo bo'lgan tovushlarni ham, jonsiz narsalarning sinishi, bir-birlariga urilishi va boshqa holatlarda paydo bo'lgan tovushlarni ham imitatsiyalarni ham o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymaydi. Ana shu narsa va jonivorlarning tovushlariga kishilarning taqlid qilishlari natijasida tilda social qimmatga ega bo'lgan tovushlar komplekslaridan tashkil topgan so'zlar paydo bo'ladi. Bu tovush komplekslari til ihtiyoriga o'tgach, til uni silliqlashtiradi, fonetik va struktural forma, ma'no beradi. Natijada, ular gapning biror bo'lagi vazifasini bajara oladi va tushuncha anglatish darajasigacha ko'tarila oladi.

Taqlid so'zlar:

- a) O'zlarining leksik ma'nolariga ega;
- b) Kishida umumiy ta'ssurot hosil qilish darajasiga ko'tarila oladi. Bir tilde gapiruvchi hamma kollektiv asosan ularni bir hilda tushunadi;
- c) O'zlariga hos qurilishga, formaga ega;
- d) Sodda holda asosan yordamchi fe'llar bilan birga keladi;
- e) Gapda ma'lum bo'lak vazifasini bajarib, boshqa gap bo'lakalari bilan munosabatga kirisha oladi. Mana bu hususiyatga ega bo'lgan taqlidni so'z deb hisoblash mumkin.

Taqlidni ifoda etuvchi tovush kompleksining soʻz ekanligini eʼtirof qiladigan fikrlar chet el tilshunosligidayam uchraydi.

Amerikalik Blansh Lirnet oʻzining koʻp yillik kuzatishlari natijasida Shimpanze maymunining turli holatda bir necha hil bir-biridan farq qiluvchi tovushlarning yozib olgan. U:

Gak, gakh, gah, kha, nkak deb ovqatlanish vaqtida ovoz chiqaradi

Ko-ko, ku-ku deb hayajonlangan vaqtida shivirlaydi

M-m-m deb meva yeyayotgan vaqtida ovoz chiqaradi

Xo-ox deb tashvishga tushganini, qoʻrqanligini bildiradi

Xux deb uyasiga kirib ketayotganda tovush chiqaradi

Lekin biz maymunning bu hil tovushlarini u ongli ravishda chiqaradi deb ayta olmaymiz. Maymun bu tovushlarni stihiyali ravishda hech narsani tushunmasdan chiqaradi. Bulardan tashqari, tilshunoslikda tasviriy soʻzlarning baʼzi grammatik xususiyatlari: obrazli soʻzlarning tovushga taqlid soʻzlarga, tasviriy soʻzlarning undovlarga munosabatlari va shunga oʻxshash masalalarda ham olimlarimiz oʻrtasida har hil fikrlar davom etib kelmoqda.

### Adabiyotlar

- 1.Qoʻngʻurov R. Oʻzbek tilida tasviriy soʻzlar-T:Fan, 1966, 35-36.
- 2.International Journal of Basic Sciences & Applied Research. Vol, 3 (SP), 219-225, 214//available online at<http://www.isicenter.org>.-P.221.
- 3.Ismatova, Nodira Makhmudovna; Alieva, Nargiza Nodirovna; and Gafurova, Barno Asadjon kizi (2020) "THE NATURE OF CATEGORY OF VOICE IN ENGLISH AND SOME PROBLEMS IN THEIR TRANSLATION," *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*: Vol. 2: Iss. 7, Article 34.

## TIL – MILLATNING RUHI

Abduvaitov Eldorbek Farxod o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

### ANNOTATSIYA

Maqolada tilning hayotimizdagi o'rni, naqadar katta ijtimoiy ahamiyatga egaligi xususida so'z yuritiladi. Til haqidagi qonunning ona tilimizni himoya qilish, asrash va boshqa tillarga ham hurmat nazarida qarash lozimligi bugungi kunning dolzarb mavzusi bo'lib borayotganligi tahlil etilgan.

### KIRISH

Ona tili – millatning ruhi, uning or-nomusi, ma'naviy qiyofasi, orzu-umidlarning namunasidir. Ona tili millatning birligi va birdamligining timsolidir. U millatni yagona xalq sifatida o'z atrofida birlashtiradi va dunyoda borliqni ta'min etadi. Har bir millatning o'z Vatani, oilasi bo'lgani kabi uning jonajon va betakror ona tili ham bo'ladi. Inson uchun uning vatani, ota-onasi, oilasi qanchalik qadrlig bo'lsa, uning ona tili ham shu qadar aziz va muqaddas bo'ladi. Hattoki, go'dak ham o'z vatanini, ota-onasini, dunyoni o'z ona tili orqali anglaydi va atay boshlaydi. Farzand tarbiyasida onaning o'rni beqiyos bo'lganidek, insonning hayotda o'z o'rnini topishida, kamolotga erishuvida tilning o'rni ulkan ahamiyatga ega. Shu bois tilni, onaga qiyoslab ona tili deb ataydilar. Til inson vujudida qon-qoniga singib oqadi. Jamiki, ezgu fazilatlar, avvalo, ona allasi va ona tilining bebaho jozibasi orqali singadi. Inson qalbida ona tiliga nisbatan sof tuyg'u, mehr-muhabbat alanga oladi. Turk dunyosining buyuk ma'rifatparvar ijodkori Ismoilbek Gaspirali aytganidek : “Millatning ikki asosi bordur. Bu ularning tili va dinidir. Agar millat hayotidan shu ikkisidan biri sug'urib olinsa, bu millat tanazzulga yuz tutur”.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Suvsiz daryo bo'lmaganidek, tilsiz millat ham vujudga kelmaydi. Biror millatga mansub bo'lgan til, o'sha millat bilan yashaydi va bardavom bo'ladi. Ota-bobolarimiz qadimdan tilni asrab-avaylashgan, rivojlantirishgan. Masalan, A.Navoiy, Zahriddin Muhammad Bobur, Lutfiy va boshqalar. O'zbek tilining rivoji uchun beqiyos hissa qo'shganlar. Turkiy tillar oilasiga mansub bo'lgan o'zbek tilimiz bizning bebaho boyligimizdir. So'z mulkining sultoni, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy o'zi yashagan murakkab davr – XV asrda tilimiz himoyasiga o'tlanib, turkiy til o'z imkoniyatlari jihatidan boshqa tillardan sira qolishmasligini ilmiy va amaliy jihatdan isbotlab berdi. O'zining “Xamsa” kabi shoh asarini turkiy tilda yaratdi. Hozirda ham shoirlarimiz o'zbek tilining boyligini, uning buyukligini namoyon etuvchi asarlar yaratmoqdalar. Boisi buyuk adabiyoti bo'lgan xalqning buyuk tili ham bo'ladi. Insonning qanday



ma'naviyatga ega ekanini uning tilida, chiroyli nutqida namoyon bo'ladi. Til millatning buyuk boyligi, bebaho xazinasi, tuganmas mulkidir. Chunki millatning tarixi, uning madaniy, ma'naviy merosi, urf-odatlari va an'analari unda mujassam bo'ladi. Shu sababli ona tilimizni asrab-avaylash, uni boyitishimiz va avlodlarga to'liqligicha yetkazishimiz kerak. Birinchi Prezidentimizning ta'biri bilan aytganda "O'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-milliy bog'liqlik til orqali vujudga keladi". Bu fikrlarni doimo yodimizda tutishimiz kerak. Darhaqiqat, tilsiz millat rivojlanmaydi, taraqqiy etmaydi.

## **MUHOKAMA**

1989-yil 21-oktabrda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'zbek tili maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yildi. O'zbek tili haqidagi qonun qabul qilinganidan so'ng barcha davlat hujjatlari o'zbek tilida yuritiladi, gazeta va jurnallar o'zbek tilida chop etila boshlandi. 1993-yil 2-sentabrda "Lotin tiliga asoslangan o'zbek alifbosini tuzish tog'risida"gi qonun qabul qilingandan so'ng, mamlakatimiz har tomonlama rivojlandi va jahon kommunikatsiya tizimidan munosib o'rin egallash muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Shu sababli chet ellarda ham o'zbek tiliga qiziquvchilar, uni o'rganuvchilar soni ortib bordi. Dunyoda 5600 dan ortiq tillar mavjud bo'lib, bundan 200 tasigina davlat tili sifatida qabul qilingan. Ularning orasida o'zbek tilining borligi uning naqadar sof, mukammal, purma'no va jozibadorligidan darak beradi.

## **NATIJA**

Istiqlol yillarida mamlakatimizda barcha sohalarda bo'lgani kabi tilimiz taraqqiyotida ham muhim o'zgarishlar yuz berdi. O'zbek tilining xalqaro miqyosda obro'si oshdi. "Davlat tili haqida"gi qonun ona tilimizning bor go'zalligi va jozibasini to'la namoyon etish bilan birga, uni ilmiy asosda rivojlantirish borasida ham keng imkoniyatlar yaratdi. Olimlar va mutaxassislar tomonidan ilm-fan va turli sohalarga oid ensiklopediya va lug'atlar, darslik va o'quv qo'llanmalari chop etildi. Mumtoz adabiyotimiz namunalari, sakson mingdan ziyod so'z va so'z birikmasini, fan, texnika, sanoat, madaniyat va boshqa sohalarga oid atamalarni, shevalarda qo'llaniladigan so'zlarni o'z ichiga olgan besh jildlik "O'zbek tilining izohli lug'ati" bu borada amalga oshirilgan ishlarning eng muhimlaridandir.

## **XULOSA**

Bir so'z bilan aytadigan bo'lsak, tilni sevish, uni ardoqlash, millatni sevish va uni qadrlash bilan teng hisoblanadi. Har qaysi xalqning turmush tarzi, urf-odatlari, madaniyati uning tilida o'z ifodasini topadi. Til – millat ko'zgusi, deb bejiz aytilmagan. Xalqimizning necha asrlik boy tarixi, ko'hna va serqirra madaniyati o'zbek tili ta'sirida

shakllangan. Ulug‘ shoirimiz Alisher Navoiy shu tilda bebaho asarlar yaratib, dunyoni lol qoldirgan. Bugungi kunda jahonning barcha mamlakatlarida davlatimiz delegatsiyalari tashrifi, yoshlarimiz yutuqlari, sportchilarimiz g‘alabalari sharafiga o‘zbek tilida madhiyamiz kuylanayotir. Biz o‘z ona-tilimizni asrab-avaylashimiz, uning nufuzini oshirishimiz, go‘zal va sofligini avlodlarga meros sifatida qoldirishimiz, dunyoga tanitishda o‘z hissamizni qo‘shishimiz kerak. Agar biz o‘z tilimizning ko‘rkamligi, boyligini dunyoga tarannum etsak, millatimiz yanada charog‘on bo‘ladi va birligimiz mustahkam bo‘ladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

- [1]. Erkaboyeva, N. O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami. Toshkent.: "Yosh kuch", 2021.
- [2]. "O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi”, 1995 yil, 12-son.

**БОШЛАНҒИЧ СИНФЛАРДА  
АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ  
Авазхонов Шоҳназар Гулназарзода  
ЧДПУ “Бошланғич таълим” юналиши 3-курс талабиси.**

*Аннотатсия:* Сизга тақдим етилган мақолада бошланғич синфларда ахборот технологичлардан самарадорлигини оширишга ҳамда ўқувчиларни дарс пайтида қўллаш, қалб ва қизиқтириш аҳамияти ҳақида фикр юритилган.

**Калим сўзлар:** Бошланғич, компьютер, синф, таълим, мактаб, дарс, ўқувчи, ўқувчи, инновацион, технология,

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги «2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги ПФ-60-сон Фармониға мувофиқ, шунингдек, ахборот-коммуникация технологиялари соҳасини янги босқичга олиб чиқиш бўйича устувор вазифаларни амалга ошириш мақсадида:

Бошланғич синф ўқувчиларида айнан бундай ёшда боланинг ақлий қобилиятларида жадал ривожланиш жараёни кечади, унинг интеллектуал салоҳияти ривожланиши учун фундамент яратилади. Ўқув жараёнида педагогик, инновацион ва ахборот технологиялардан фойдаланиш бошланғич таълимнинг долзарб масалаларини самарали ечиш учун имконият яратади. Жумладан,

- ўқув жараёнини қизиқарли ва маҳсулдор қилиш ҳисобига ўқувчида материални англаб олиш мотивацияси ортади;

- мустақил ишлаш ва ўзини-ўзи назорат қилиш кўникмаси ривожланади;

- дарснинг самарадорлиги ва ўқувчиларнинг бир хил ўзлаштиришини таъминлайди;

- ҳар бир ўқувчининг фикрлаши, билиш ҳиссиёти, мақсад сари интилишлари ва маънавий тасаввурларини ривожлантириш ҳисобига умумий фаол ривожланишга эришилади;

- синфдаги барча болаларнинг фаол ишлаши таъминланади.

Инновацион ва ахборот технологияларини таълим жараёнига тадбиқ қилишнинг замонавий ахборот дунёсини мантиқий ва зарурий қадам деб характерлаш мумкин. Компьютерларнинг ўқув жараёнига жадал кириб келиши педагоглар ҳаётида мисли кўрилмаган даражада ўқитишнинг янги турларини, шакллари келтириб чиқарди. Бошланғич таълимда ахборот технологияларидан фойдаланиш иккита асосий масалани ечиш билан боғлиқ: биринчидан, болаларни янги техникавий воситалардан фойдаланишга ўргатиш; иккинчидан эса

Ўқувчиларнинг ўқиш ва ўқишдан ташқари фаолиятида янги билимларни такомиллаштириш мақсадида компьютер технологияларидан фойдаланиш.

Дарсларда ахборот технологияларидан фойдаланиш педагоглар зиммасига жуда катта масъулият юклайди. Чунончи, замонавий педагог компьютердан фойдаланишни билиши, компьютер ёрдамида ўқитиш воситаларидан фойдалана олиш ва уни ўқув жараёнига тадбиқ қилиш кўникмаларига эга бўлиши, ўз билимини компьютерли ўқитиш бўйича доимо такомиллаштириб бориши ва ҳоказоларга эга бўлиши зарур. Амалиётда шуни такидлаш жоизки, бундай талаблар асосида ташкил этилган дарсларда самарадорлик юқори кўрсаткичда бўлади, масалан, 3-синф математика дарсларида, ўқув материални ўргатиш компьютерли технология асосида ташкил қилинганда ўзлаштириш сезиларли даражада яхшиланди, ўқувчиларда дарсга бўлган қизиқиш ортди, мустақил ишлаш кўникмаси пайдо бўлди, билимни ўзлаштириш бўйича имкониятлари ривожланди, ижодий ёндашувлар пайдо бўла бошлади, ўзига ва билимига бўлган ишонч шакллана бошлади.

Демак, бошланғич мактабда ахборот коммуникация технологияларидан фойдаланиб, дарс жараёнини ташкил қилиш долзарб ҳисобланади. Чунки 1-4 синф ўқувчиларида кўرғазмали-образли фикрлаш ривожланган, шу боисдан ҳам дарс жараёнини компьютер технологияларидан фойдаланиб ташкил қилиш жуда муҳим.

Бунинг учун сифатли кўрғазмали материалларни мақсадли тарзда жуда кўп тайёрлаш ва ундан фойдаланиш зарур, билимни қабул қилиш жараёнига янги кўринишларни тадбиқ қилиш, товушлар, слайдлар, анимациялар билан.

Бошланғич мактабда турли дарсларда АКТдан фойдаланиш ўқитишнинг кўрғазмали-тасвирли-тушунтириш услубидан фаолиятли услубга ўтишга имконият яратади, бунда ўқувчи ўқув жараёнининг фаол иштирокчисига, субъектига айланади. Бу эса ўқувчида билимни англаган ҳолда ўзлаштиришга имкон яратади. Шу боисдан ҳам замонавий таълим тизимида бошланғич синфларда компьютер технологияларини қўллаб дарс жараёнини ташкил қилиш жуда кўп новатор педагоглар томонидан амалга оширилмоқда, бу жуда кўпчилик педагогларнинг ҳаётий иш нормасига айланиб бормоқда.

Педагогик техника малакаларини мукамал эгаллаш учун, аввало, ўқитувчи ўз фанини, ўқитадиган предметини бошқа фанлар билан ўзаро алоқадорликда билиши, педагогик ва ахборот технологияларини, педагогика ва психология фанлари асосларини давр тараққиёти даражасида билиши, касбий жиҳатдан ўз-ўзини тарбиялай оладиган бўлиши зарур.



Демак, бошланғич синфларда таълимни мувофиқлаштириш иқтисодий ва дидактик аҳамият касб этади. Таълим учун ажратилган вақт тежалади, ўқувчиларнинг ақлий зўриқиши камаяди, малака ва кўникмалар ўқувчилар томонидан тўлақонли тушуниб ўзлаштирилади. Мувофиқлаштирилган дарслар болалар дунёқарашида бир бутунликни, воқеалар узвийлигини тушунишни табиатан англаб етишга ўргатади.

### **Фойданилган адабиётлар рўйхати;**

1. Толипов О. “Педагогик технология” – Тошкент : Фан, 2005,205 бет.
2. Юлдошев Қ. Янги педагогик технология юналишлари, муаммолари, халқ таълими, 1999. Н 4. – Б. 4-11.

## FACIAL EXPRESSIONS IN NONVERBAL COMMUNICATION

Eshmirzayeva Nozima Bahodir qizi,

1 course Masters degree student, National University of Uzbekistan, Faculty of foreign philology, Linguistics (English) department

eshmirzayevanozima@gmail.com

**Abstract:** This article explores the role of facial expressions in nonverbal communication. Facial expressions are a crucial component of nonverbal communication, as they convey a wide range of emotions and attitudes that can greatly enhance our ability to understand and connect with others. The article reviews recent research on facial expressions, including the universality of facial expressions across cultures, the role of facial expressions in conveying emotions and attitudes, and the importance of context in interpreting facial expressions. The article also discusses the potential implications of facial expressions for interpersonal communication, including their use in building rapport and establishing trust. Overall, the article highlights the importance of facial expressions in nonverbal communication and underscores the need for individuals to develop strong skills in interpreting and using facial expressions effectively in their interactions with others.

**Key word:** nonverbal, facial, potential, importance.

### INTRODUCTION

Facial expressions are a key component of nonverbal communication. They involve the use of various facial movements and gestures to convey emotions, attitudes, and intentions without the use of words. Facial expressions are incredibly powerful, as they are often the first thing that people notice and can convey a great deal of information about a person's emotional state and intentions.

Facial expressions are universal, meaning that people from all cultures and backgrounds are able to recognize and interpret them. There are several basic facial expressions that are recognized across cultures, including happiness, sadness, anger, fear, surprise, and disgust. These basic emotions are conveyed through a combination of facial movements, including eyebrow movement, eye widening or narrowing, mouth movements, and changes in skin tone.

### THE MAIN RESULTS AND FINDINGS

Facial expressions can also convey more subtle emotions and attitudes, such as interest, boredom, confusion, and suspicion. For example, a furrowed brow and narrowed eyes can indicate suspicion or doubt, while raised eyebrows and widened eyes can indicate interest or surprise.

In addition to conveying emotions and attitudes, facial expressions can also be used to regulate social interactions and establish social hierarchy. For example, a smile and nod of the head can indicate agreement and encourage further conversation, while a frown or scowl can indicate disapproval or a desire to end the conversation. Similarly, maintaining eye contact can convey interest and attentiveness, while avoiding eye contact can convey discomfort or a lack of interest.

It is important to note, however, that facial expressions are not always easy to interpret and can be influenced by a variety of factors. These factors can include cultural norms, individual differences, and the context in which the expression occurs. It is therefore important to be aware of these factors and to interpret facial expressions in context, in conjunction with other forms of nonverbal and verbal communication.

Facial expressions are a powerful component of nonverbal communication. They can convey a wide range of emotions, attitudes, and intentions, and are recognized across cultures. By understanding and interpreting facial expressions, we can improve our communication skills and develop stronger social connections with those around us.

## **CONCLUSION**

In conclusion, facial expressions are a vital aspect of nonverbal communication. Our faces are incredibly expressive, and the messages conveyed through our facial expressions can have a significant impact on how others perceive us and the meaning of our words. By understanding the various facial expressions and the emotions and attitudes they convey, we can become more effective communicators and build stronger connections with others. Additionally, by paying attention to the facial expressions of those around us, we can gain valuable insights into their thoughts and feelings, allowing us to respond more effectively and build stronger relationships. In today's world, where much of our communication takes place online, it is more important than ever to be mindful of the role that facial expressions play in our interactions with others. By using facial expressions intentionally and interpreting them accurately, we can enhance our communication skills and build more meaningful connections with those around us.

## **REFERENCES**

1. Buck, R. W., Savin, V. J., Miller, R. E., & Caul, W. F. (1972). Communication of affect through facial expressions in humans. *Journal of personality and social psychology*, 23(3), 362.
2. Schneider, S., Krieglstein, F., Beege, M., & Rey, G. D. (2022). The impact of video lecturers' nonverbal communication on learning—An experiment on gestures and facial expressions of pedagogical agents. *Computers & Education*, 176, 104350.

3. Matsumoto, D. E., Hwang, H. C., & Frank, M. G. (2016). *APA handbook of nonverbal communication*. American Psychological Association.
4. Efenbein, H. A. (2013). Nonverbal dialects and accents in facial expressions of emotion. *Emotion Review*, 5(1), 90-96.
5. Abdurazzakova, M. (2023). Nonverbal Communication and its Role in Communication. *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT*, 3(3).
6. Tursunpo'latovna, J. D. (2022). Use of alisher navoi's works in" children's literature" subject. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(12), 63-68.



**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MATNNI O'QISH VA  
TUSHUNISH KO'NIKMALARINI SHAKLANTIRISH MASALALARI**

*Mamaraximova Nafisa Ibroximovna*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti*

*o'qituvchisi (+998933053187)*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda o'tiladigan yangi avlod darsliklari bo'lgan ona tili va o'qish savodxonligi fanining ahamiyati va holati haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'z:** ona tili, o'qish savodxonligi, fan, boshlang'ich sinf, savodxonlik, dars samaradorligi.

**Аннотация:** В данной статье рассказано о значении и состоянии науки о родном языке и грамотности чтения, которая является учебником нового поколения для начальных классов.

**Ключевая слово:** родной язык, грамотность чтения, естествознание, начальная школа, грамотность, эффективность урока

**Annotation:** This article talks about the importance and status of the science of mother tongue and reading literacy, which are new generation textbooks taught in primary grades.

**Key words:** mother tongue, reading literacy, science, elementary school, literacy, classroom performance.

Maktab o'quvchilarining bilimi va ko'nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o'qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o'quv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, xalq ta'limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo etish maqsadida, shuningdek, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son "2022-2026-yillarda Xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni tasdiqlandi. [8]

O'zbekistonning boshlang'ich sinf bitiruvchilari boshqa davlatlardagi tengdoshlariga nisbatan qay darajada yaxshi o'qishi, O'zbekiston o'quvchilarining o'qish savodxonligi qay darajadali, o'qish 4-sinf o'quvchilari uchun qay darajada sevimli mashg'ulotligi, oila savodxonlikni rivojlantirishga qanday hissa qo'shishi, bugungi kunda bizning mamlakatimizda o'qishni o'rgatish jarayoni qanday tashkil etilganligi, O'zbekiston o'qishni o'rgatish jarayonining boshqa davlatlarga nisbatan

o'ziga xosligi, agar shunday bo'lsa u nimada namoyon bo'lishi boshlang'ich sinflarimizning o'qituvchilari foydalanayotgan metodlar boshqa mamlakat o'qituvchilari foydalanayotgan metodlardan farqi kabi asosiy masalalar o'rganiladi. PIRLS tadqiqotning 2016-yil natijalariga ko'ra, 50 ta mamlakat ichida, Rossiya, Singapur, Gonkong, Irlandiya va Finlyandiya mamlakatlari yuqori natijalarni qayd etgan bo'lsa, shular orasida rossiyalik va singapurlik o'quvchilar matnni o'qish va tushunish bo'yicha eng yuqori natijalarni ko'rsatdi. Shuningdek, Rossiyaning boshlang'ich sinf o'quvchilari ushbu mezon bo'yicha dunyoda yetakchilik qildi.

Ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitishda asosiy e'tibor o'quvchida tilga doir to'rt ko'nikma: o'qib tushunish, tinglab tushunish, nutq so'zlash va yozish hamda grammatik savodxonlikni shakllantirishga qaratiladi. Bundan tashqari PIRLS xalqaro tadqiqotida ham boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilashda ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan tahlillarni taqdim etadi.

O'qib tushunish – bu matnni qayta ishlash, uning ma'nosini tushunish va o'qiyotgan shaxs oldindan bilgan narsalar bilan bog'lab anglay olish qobiliyatidir. [1]

So'zlarning lug'aviy ma'nosini bilish, so'zlarning kontekstual ma'nosini bilish, matn mazmuniy bloklarining o'zaro bog'lanishini anglash, matn tarkibidagi parchalar asosida xulosa chiqarish, matndagi asosiy fikrini aniqlash, berilgan savollarga matn asosida javob bera olish, matnda ishlatilgan badiiy san'atlar yoki so'z birikmalarini tanib, ajratib olish va ohangini aniqlash, vaziyatning kayfiyatini (tasdiq, inkor, so'roq qilish, buyruq berish), muallifning maqsadi, niyati va nuqtai nazarini aniqlash va muallif to'g'risida xulosalar chiqarish qobiliyatlari o'qilgan matnni samarali tushunish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalar hisoblanadi. (diskurs-semantika). [2]

Matnni o'qib tushunish qobiliyatiga o'quvchining yuqoridagi ko'nikmalari hamda ma'lumotni qayta ishlash qobiliyati ta'sir ko'rsatadi. Agar o'quvchi so'zning ma'nosini bilmasa, u matnni qayta ishlash uchun juda ko'p vaqt sarflaydi, chunki u matndagi tushunilmagan so'zlarni individual tarzda anglashga urinadi, bu esa tushunishga ham halal beradi. O'qib tushunish malakasini rivojlantirish uchun ko'plab mashqlar mavjud, ular orasida so'z boyligini oshirish, matnni tanqidiy tahlil qilish, maydalab o'qish.

“Tinglab tushunish nutq faoliyatining bir turi bo'lib, u retseptiv nutq faoliyatiga kiradi. Tinglab tushunish so'zlovchining nutqini radiodan, magnitafondan, kompakt diskdan va muloqot paytida tinglab tushunib, ma'lumot olishidir. U ba'zi adabiyotlarda audirovaniya deb ham yuritiladi. U murakkab nutq faoliyatidir, chunki tinglovchi tezda

shaklni qabul qila olishi, xotirada saqlab qolishi zarur, aks holda uni qaytadan ko'rib, o'qib, tushuna olishi uchun manbaa, sharoit, vosita yo'q. Tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar va talabalarda tinglab tushunish gapirishga qaraganda kam taraqqiy etgan. O'quvchi o'qiganda, ko'rganda tinglab tushunishga qaraganda olti marta ko'p ma'lumot olarkan. Sababi uni ustida kam ishlaganidadir, murakkabligidadir. Tinglab tushunish gapirishning ajralmas qismidir. Tinglab tushunish va gapirish og'zaki nutqni tashkil qiladi".[3;75]

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini 1-sinfdanoq Xalqaro PIRLS tadqiqotlariga tayyorlashda yangi avlod darsliklaridan hisoblangan Ona tili va o'qish savodxonligi fani juda muhim rol o'ynaydi. O'qib tushunish, tinglab tushunish, nutq so'zlash va yozish hamda grammatik savodxonlik ko'nikmalarini shakllantirishda o'qituvchidan katta mas'uliyat va mehnat talab etadi.

Ona tili va o'qish savodxonligi darsligi maqsadi o'quvchilarni turli hayotiy vaziyatlarda grammatik jihatdan to'g'ri va kommunikativ jihatdan erkin so'zlay oladigan darajaga olib chiqishni maqsad qilib qo'ygan. O'quvchining tilni qo'llashdagi real ehtiyoji (Ijtimoiy muloqot, akademik ta'lim) hisobga olingan va zaruriy lingvistik qurilmalar turli nutqiy vaziyatlarda berilgan.[4;4]

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining, eng avvalo, o'qib tushunish, tinglab tushunish, nutq so'zlash va yozish hamda grammatik savodxonligini oshirishda to'g'ri o'qish, so'z boyligini oshirish, keng fikrlashga o'rgatish, nutqini, ongini oshirish kabi bir qator xususiyatlarni o'rganishda ona tili va o'qish savodxonligi darslarini to'g'ri tashkil etish zarur. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida ham boshqa fanlardagi kabi axborot texnologiyalaridan foydalanib dars olib boorish ta'lim sifatini oshirishga va o'quvchilarning darsga nisbatan qiziqishlarini o'stirishga yordam beradi. Hozirgi kundagi davr talabi ham shu desak mubolag'a emas. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishda ham ta'limiy, ham tarbiyaviy ahamiyatga ega. Masalan, matn, bezakli taqdimotlar, videofilmlar, audiolar, musiqa, animatsiyalardan darslarda unumli foydalanish ham dars samaradorligiga sezilari ta'sir etadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'qituvchisi har bir o'quvchiga ona tili va o'qish savodxonligi darsligining ahamiyatini chuqur anglagan holda o'quvchilarga zarur bilim va ko'nikmalarni bera olishi hozirgi kunda ahamiyatlidir. Shunda o'quvchilar kelgusida og'zaki va yozma savodxonligi hamda o'qib tushunish, tinglab tushunish ko'nikmalari yuqori shaxslar bo'lib yetishishadi. Bundan tashqari 4-sinflar uchun hozirgi kundagi xalqaro tadqiqotlardan biri bo'lgan PIRLS tadqiqotiga tayyorlashning samarali poydevori ham bo'lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. „What is Reading Comprehension?“ (en-US). *Reading Worksheets, Spelling, Grammar, Comprehension, Lesson Plans* (29-may 2008-yil). 9-may 2016-yilda asl nusxadan [arxivlandi](#).
2. Davis, F.B. *Psychometrika* (1944) 9: 185. <https://doi.org/10.1007/BF02288722> Committee on Learning Sciences: Foundations and Applications to Adolescent and Adult Literacy. *Improving Adult Literacy Instruction: Options for Practice and Research*. National Academies Press, 2012 — 41 bet. ISBN 978-0-309-21960-0
3. Jalolov J. Chet tili o'qitish metodikasi. "O'qituvchi. 2011
4. Ona tili va o'qish savodxonligi [Matn]: 3-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma / K. Mavlonova, [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 4-b.
5. Farsaxonova, M. (2022). 2-SINF "ONA TILI VA O 'QISH SAVODXONLIGI" DARSLIGIDAGI MATNLARNI TUSHUNISH VA ANGLASH KO 'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI. Boshlang'ich ta'limda innovatsiyalar, (1).
6. Farsakhanova, D., & G'ofurova, S. (2021). Boshlang'ich ta'limda sinfdan tashqari o'qish darslarida P. Mo'min ijodini o'rganish metodikasi. Журнал инновации в начальном образовании, 1(БТНА\_1).
7. Farsakhanova, D., & Azdamova, M. (2021). Boshlang'ich sinflarda sifat ustida ishlash bo'yicha topshiriqlar tizimini ishlab chiqish. Журнал инновации в начальном образовании, 1(БТНА\_1).
8. <https://lex.uz/docs/6008663>



Ҳижрон изтироби  
Нигора Холматова,  
ҚДПИ ўзбек адабиёти кафедраси  
ўқитувчиси, филология фанлари  
бўйича фалсафа доктори (PhD)  
Абдуллаева Мухлиса,  
ҚДПИ талабаси

**Аннотация:** Шоир ўз ижоди давомида кўплаб лирик шеърлар-ғазаллар мухаммаслар, мусаддаслар яратди. Ҳижрон изтироблари барқ урган шеъринг мактубларга ҳам аҳамиятли

**Калит сўзлар:** мусаддас, мусаммат, адабий истилоҳ, лирик шеър, мураббаъ, мухаммас, мусамман, муашшар, ҳижрон, ишқ.

**Аннотация:** За время своего творчества поэт создал множество лирических поэм, газелей, мухамм, мусаддов. Страдания хиджрана также важны для поэтических писем.

**Ключевые слова:** мусаддас, мусаммат, литературная революция, лирическая поэма, мурабба', мухаммас, музамбал, муашшар, хиджран, ишқ.

**Annotation:** During his creative work, the poet created many lyrical poems, ghazals, muhamms, musadds. The suffering of the hijran is also important in poetic writings.

**Key words:** musaddas, musammat, literary revolution, lyric poem, murabba', muhammas, muzambal, muashshar, hijran, ishq.

Миллий уйғониш даври ўзбек адабиётида ўзининг ижоди билан катта ўрин тутган ижодкорлардан бири Зокиржон Холмухаммад ўғли Фурқатдир. Шоир ўз ижоди давомида кўплаб лирик шеърлар-ғазаллар мухаммаслар, мусаддаслар яратди. Ҳижрон изтироблари барқ урган шеъринг мактубларга ҳам аҳамиятли. Шоир ўзбек адабиётида ҳаётинг лириканинг ривожланишига баракали ҳисса қўшган ижодкордир.

Фурқат “Ул қаро кўз...”деб бошланадиган ғазали тасвир маҳорати жиҳатдан шоирнинг энг сара асарлари қаторидан ўрин олган. Ғазалда шоир севги билан боғлиқ ҳолда ижтимоий масалаларни ҳам куйлайди. Ғазалнинг дастлабки бандларида гўзал ёр суврати, унинг қора кўзлари тавсифи билан бошланади. Бу гўзалнинг қора кўзларига сурма тортмоқлик не ҳожат. Улар шундай ҳам қоп-қора. Гўзалнинг кўзлари тасвири кейинги байтда ҳам давом эттирилади. Шу ўринда шоир кам қўллайдиган истиорадан фойдаланганлигини кўриш мумкин.

Иккала кўзнинг қоралиги туфайли шоир уларни қора ҳинду болага ўхшатади. Сўнг қайрилма қошлар тасвири берилади. Гўёки, икки ҳинду болалар ёнма-ён туриб ёй тортмоқдалар.

Ул қаро кўз кўзларига сурма бежо тортадур.

Балки ундин даҳр эли ортиқча ғавғо тортадур,

Қошлари остида гўё икки фатан кўзлари

Икки қошу баччадурким, ёндошиб ё тортадур

Шеърдаги образлар тизимининг бир-биридан келиб чиқиши ва бир-бирини тақозо этиши ажойиб бадиий эмоционаллик ҳосил қилган.

Шоир тажниси сўз имкониятларидан усталик билан фойдаланади.

Фурқат анъаналарни янги босқичга кўтара олди ва шу билан ҳам лирик истеъдодини юқори босқичга кўтара олди. Мазкур шеърда маъшуканинг фақат бир сифати-нозиклиги тасвир этилади.

Фурқат ўз ватанини гоҳ мўъжизали санамга, гоҳ қаердадир топталган меҳрибон ёрга ўхшатади.

Шоир моҳир рассом сингари ранглар уйғунлигига алоҳида эътибор беради. Кўз қош тасвиридан сўнг қора зулфингни таърифини беради. Шеърга Юсуф ва Зулайҳо образларини киритади.

Не билур Юсуфни, нозу ҳусн ила мағрурдур,

Ул қадарким ишқ дардини Зулайҳо тортадур.

Келтирилган байтда, шоир гўзалнинг ҳусну жамолини, қошу кўзларини таърифлашдан севги, ноз, дард мавзуларини ифодалайди.

Қуйидаги байт бутун ғазалининг авж нуктаси ҳисобланади. Бундай кульминацион нукта Фурқат асарлари ичида алоҳида ўрин тутади.

Кўринадикки, шоирнинг кўп ғазалларида севги-ишқ мавзуси муҳим ижтимоий мавзулар билан қоришиқ ҳолда келади.

Фурқатнинг “Сурмадин кўзлар қаро” ғазалида ҳам маъшуқа гўзаллиги таъриф и\тавсиф этилади. Ёрнинг ташқи қиёфасини кўтаринки руҳда тасвир этиб, ғазални шундай яқунлайди:

Жаврларким, Фурқат, ул шўхи жафожу айлади.

Мунча бедоду ситам қилмас мусилмонға фаранг.

Эй Фурқат, у жофокор сенга қилган жабру зулмларини фаранг ҳам мусулмонга қилмайди, - демокчи шоир.

Шоирнинг “Кашмирда” ғазалида ҳам ишқ, ёр тўғрисида сўз боради. Шоир томонидан тасвирланаётган қизнинг сеҳргар кўзларида юз хил жоду усуллари борлигини ифодалайди:

“Бир қамар сиймони кўрдум балдан Кашмирда,  
Кўзлари масхуру юз жоду эрур тасхирда”

Шоир ўз шеърларида бадиий санъатлардан ҳам унумли ва ўринли фойдалангани кўзга ташланади.

Хуллас, шоир ижодида маъшуқа ва ошиқ севгисига бағишланган ғазаллари ижодини ташкил қилади ва улар ўзбек мумтоз адабиётининг бир қисми ҳисобланади.

### **Фойдаланган адабиётлар:**

- 1.А. Қаюмов. Шеърый жилолари. 1975. 5-бет Т. Ғ. Ғулом нашриёти.
- 2.Фурқат. Танланган асарлар. Т. Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1975, 101-бет
- 3.Yakubovna, Kholmatova Nigora. "EXPRESSION OF SPIRITUAL AND MORAL PROBLEMS IN THE DRAMA." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.10 (2022): 212-214.
- 4.Kholmatova, N. "TEACHER EXAMPLE." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.12 (2022): 725-728.
- 5.Xolmatova, N. O., and O. A. Abduraimova. "METHODS OF DEVELOPMENT IN ADOLESCENCE." *Экономика и социум* 1-1 (80) (2021): 295-297.
- 6.Nigora, Kholmatova. "SOCIAL-PUBLICISTIC ANALYSIS OF FACTS IN THE ERKIN AZAM'S ARTICLE" MARSIIYA (MOURNING) TO THE SINKING SHIP." *Global Congress of Contemporary Study*. Beni-Suef University, 2020.

Ализода Мехрубон  
Магистр Государственный институт  
искусств и культуры Узбекистана  
Alizoda Mehrubon  
Master State Institute  
arts and culture of Uzbekistan

## ПЛЮСЫ «ЦЕНЗУРЫ» И ЕЁ НЕОБХОДИМОСТЬ В СОЗДАНИИ КИНО

**Аннотация:** Данная статья посвящена анализу плюсов цензуры в кино и о его положительных сторонах. Идёт перечень плюсов отсутствия цензуры и его влияние на молодёжь

**Ключевые слова:** минусы, влияние, восточная кинематография, цензура, восточные принципы, культура, мораль, менталитет.

### ADVANTAGES OF "CENSORSHIP" AND ITS NEED IN CREATING A MOVIE

**Abstract:** This article is devoted to the analysis of the advantages of censorship in cinema and its disadvantages. There is a list of disadvantages of lack of censorship and its impact on young people

**Key words:** advantages, impact, Eastern cinematography, censorship, Eastern principles, culture, morality, mentality.

Fundamentally opposite opinions regarding censorship have been expressed since the Enlightenment. Opposition on this issue also existed in German classical philosophy. Immanuel Kant stood for the freedom of expression of personal opinion, and Hegel believed that this freedom should be regulated by law and police measures.

Introducing various forms of censorship, state bodies, as a rule, motivate this with considerations of state security, the need to combat manifestations of extremism, the spread of harmful ideas, and counteract the moral decay of society. Voices in support of censorship are heard not only from government departments, but also from some public and political organizations, such as parties, political movements, the church.

On the other hand, according to critics, censorship does not really solve social problems, but only helps to hush up their existence. In addition, with the growth of the number of authors and the presence of the Internet, censorship becomes simply unrealistic.

Critics also point out that calls for the introduction of censorship often characterize the impotence of state and public organizations to solve certain social



problems. For example, critics of censorship believe that calls by religious organizations to introduce "moral censorship" in Russia in order to prevent the nation's morale from falling, in reality, reflect the inability of religious organizations to somehow influence the moral climate in society. A number of international organizations are fighting censorship, such as Reporters Without Borders.

## Types of censorship

Despite the apparent simplicity of this phenomenon, there are many varieties of censorship. For their classification, criteria such as:

The nature of the information. According to this criterion, one can distinguish such types of censorship as moral, political, economic, commercial, ideological, religious and others.

participants in the process. This criterion takes into account the relationship between the regulator (censor), source and consumer of information. For example, if the source of information independently censors information, this is self-censorship. Pedagogical censorship controls what information the teacher gives to students, and departmental censorship monitors what information goes beyond the department. Corporate censorship provides a set of requirements that all employees who speak publicly on behalf of the company must comply with.

Implementation method. This criterion allows us to distinguish two main types of censorship: preventive (preliminary) and subsequent. The first type implies that the material is carefully checked before publication. In the second case, a censorship violation may be detected after publication, as a result of which punitive measures may be applied to the author.

The nature of the functioning. Censorship can be regular (carried out on an ongoing basis in accordance with certain rules) or spontaneous. The second option is often found in modern society. For example, if a published article causes a strong negative resonance in society, the editors may decide to remove or withdraw this article by publishing an apology or retraction.

Degree of institutionalization. This criterion shows how censorship is connected with state or social institutions.

Openness (publicity). This is an indicator of how much society is aware of the existence of a certain type of censorship. Allocate vowel (open) and latent (hidden) censorship. In this case, intermediate options are also possible.

Direction of activity. This criterion indicates for which consumer the information is censored. Internal censorship implies the protection of internal information from "leakage" to the outside, as well as control of its circulation within the system. The

external one makes sure that unwanted information from the outside does not get inside the system.

**Mandatory.** Censorship can be mandatory, recommending, allowing and approving.

**legal status.** If officially censorship is prohibited, but in fact exists, it is considered illegal. If it is enshrined in existing laws, then it is legitimate.

**Subject.** The subject (source of censorship) can be the state or government departments, the church, public institutions and organizations, society itself, a certain social group or individual.

Censorship in cinema is a system of control over film productions, the purpose of censorship is to control that things that can be harmful to society, the state, ideology, etc. do not appear on the big screen. There is state censorship in films in all countries, at the time of this survey, cinema censorship is absent only in Russia, except for public censorship, but public censorship cannot prohibit the release of a particular film, cannot cut scenes, public censorship can only discuss, condemn or approve.

In the 20th century, the most developed cinemas were in Russia (USSR), in the USA, and French cinema stood out noticeably. From the middle In the 80s of the 20th century, Soviet (Russian) cinema began to degrade sharply, like the whole country. Together with the collapse of the USSR, domestic cinema almost completely collapsed. But the censorship in films was completely removed. At first, this led to the fact that sheer blackness poured onto the screens. There were good films, but these are isolated cases and these films were not particularly noticeable.

It is known that cinema is censored in almost all countries. Very powerful censorship in the USA, where even in low-quality primitive films the presence of the US flag is mandatory. By the way, in China, where censorship is more ideological, scenes with the US flag are cut out of American films, from among those films that were generally allowed to be released in China. State censorship in the United States and China primarily protects such aspects of their societies as patriotism. Foreign films that can offend or somehow humiliate the citizens of countries are simply not allowed to be shown. Of course, those films that can harm domestic cinema in the US, China and some other countries in terms of earnings are not allowed to be rented. Films are either not skipped at all, or “dangerous” scenes are cut out of them.



## LITERATURE

1. Алексеев Игнатий. Цензурный инфантилизм. Призывы ввести цензуру — попытка Церкви переложить свою работу на «власть» или признак отчаяния и паники? Портал-Credo.Ru (16 марта 2007). Дата обращения: 15 декабря 2020. Архивировано 12 мая 2021 года.
2. Горяева Т. М. Политическая цензура в СССР. 1917-1991. — 2. — М.: «Российская политическая энциклопедия» (РОССПЭН), 2009. — С. 8—9. — 407 с. — (История сталинизма). — 2000 экз. — ISBN 978-5-8243-1179-2., стр 118
3. Ольга Демидова. Дмитрий Полознев: «При Сталине девки были моложе». Журнал «Библиотечное дело». СПб.: Агентство Информ-Планета. Дата обращения: 1 января 2019. Архивировано 2 января 2019 года.

MILLIY UYG‘ONISH DAVRIGA OID ILMIY TERMINLARNING  
OKKAZIONAL HODISASI YORDAMIDA YASALISHI

*Moxinur Qurbonova Abdusoli qizi*

*Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Maqolada milliy uyg‘onish davri so‘z egalari tomonidan yaratilgan okkazional ilmiy atamalar haqida fikr bildirilgan.

**Kalit so‘zlar:** milliy uyg‘onish davri, jadid, topishma, yurakchilik, qiblanamo.

O‘zbek tilshunosligida milliy uyg‘onish davri deya atalmish muhim bir tarixiy davr asarlari tili bilan bog‘liq tadqiqotlar yaratilgan, bu davr tilining leksik-semantik, morfologik, sintaktik xususiyatlari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari – milliy uyg‘onish davri deya atalmish bu davr o‘zbek xalqi tarixida muhim o‘rin egallaydi. Zero, bu davrda, avvalo, milliy ozodlik, ma’naviyat, ma’rifat uchun buyuk ota-bobolarimiz tomonidan sabr, matonat, kuchli iroda, birdamlik ila kurash olib borildi. O‘chmas zarvaraqlarga nomlari yozilgan Muqimiy, Furqat, Ibrat, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon kabi fidoyilarimiz amalga oshirgan ezgu ishlarni o‘rganish, asarlarini tadqiq etish biz uchun ham qarz ham farzdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Biz qadimiy va boy tariximizni, ayniqsa, g‘oyat og‘ir sharoitda ilm-ma’rifat, inson erkinligi, xalq ozodligi, Vatanga, milliy qadriyatlarga mehr va sadoqat g‘oyalarini dadil ko‘tarib chiqqan jadid bobolarimiz faoliyatini yanada chuqur o‘rganishimiz lozim. Ularning ulug‘ maqsadlar yo‘lidagi mardona kurashi va fidoyiligi Yangi O‘zbekistonni qurishda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat maktabi bo‘lib xizmat qilishi zarur” [1] ligi XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari – milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti ijodkorlari asarlarining bebaho ma’naviy merosni tilshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganishga asos bo‘lmoqda.

Kompasga nisbatan *qiblanamo* so‘zini, spirtli ichimliklarga esa *masqarotlar* so‘zini qo‘llagan: *Qiblanamo (kompas) degan asbob shimol tarafini bizg‘a ko‘rsatadurki, andan iqlim va mavzeiga qarab qibla tarafini taxmin qilinadur* (Behbudiy, “Atrof. Jihoti asliya. Xarita. Plan”).

*Xonimiz ustinda xar nav masqarotlar-da bordur* (Behbudiy “Qasdi safar”).

**Ilmiy atama:** *topishma, yurakchilik, qo‘zg‘atish fe‘li, turish belgilari, tirnoqlar, bir tinish, yarim tinish, qo‘sh nuqta* kabi: *So‘zlami to‘plab, bir-biriga baylab gap tuzishda «o‘y» qulay anglashilsin deb turli belgilar ishlatiladur. Bunlarning hamasig‘a birdan «turish belgilari» yo sodacha «turishlar» deyiladur. Turish belgilaridan qaysi*



*birtasini gapning qaysi bo'lagidan so'ng qo'yilishi to'g'risida har birining o'z o'rnida ma'lumot berilgusidir. Bunda hamasini bir qatordan ko'rib o'tishimiz kerak:*

1- «Nuqta» (.)dir. Bunga kelgach o'qug'uchining to'xtashi lozim.  
2- «**Bir tinish**» belgisi (;)dir. Bunga kelgach o'qug'uchi to'xtamaydir; biroq gapdagi so'zlamning munosabatlari uzilmasin uchun bir nafas tolish (bir tinish) vaqti turib o'tadir.

3- «**Yarim tinish**» belgisi (,) dir. Bunga kelgach o'qug'uchi yarim tinish vaqti turib o'tadir.

4-So'rash belgisi (?)dir.

5-Undash belgisi (!)dir.

6-Qo'sh nuqta (: )dir.

7-**Tirnoqlar** (« »)dir.

8-Yoylar ( )dir.

9-**To'rtkul yoylari** [ ]dir.

10-Ulkan yoylar { }dir.

11-Chiziq (-)dir.

12-Nuqtalar (...)dir (Fitrat O'zbek tili qoidalari to'g'risida bir tajriba: Nahv).

Fitrat esa *yurak* so'ziga -chilik affiksini qo'shish orqali ilmiy atama – lirik turni ifodalash uchun *yurakchilik* so'zini hosil qilgan. Ma'lumki, lirik turda muallifning ko'ngil kuylari, ichki kechinmasi aks etadi.

*Adabiy asarlarda she'riy ijodlarni uchka ajratadilar:*

1.**Yurakchilik** – lirika

2.**Rivoya** – epos.

3.**Tomosha** (Fitrat Adabiyot qoidalari, 78-bet).

S.Normamatov tadqiqotlarida Abdulla Qodiriy tomonidan yaratilgan punktuatsiya so'zlariga sinonim sifatida tenglashtirilgan "*mubtada*", "*nuqtalash*" so'zlari ham muallifning ijodiy mahsuli ekanligini ta'kidlaydi. Garchi bu terminlar keyinchalik o'zbek tili uchun norma sifatida qabul qilingan bo'lmasa-da, ularning yaratilishi Abdulla Qodiriyning XX asarning boshlarida o'zbek tilini ilmiy adabiy til darajasiga yuksaltirishni maqsad qilgan Fitrat, Elbek, Ashurali Zohiriy, Munavvarqori, Miyon Buzruk kabi ma'rifatparvarlar qatorida arabcha, ruscha ilmiy istilohlar o'rniga o'zbek tilida ilmiy terminlar yaratish mumkinligini o'z faoliyatida isbotlanganligining amaliy tasdig'idir [2].

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2023 yilga mo'ljallangan Oliy Majlisga Murojaatnomasi"

Manba: <https://review.uz>. (murojaat sanasi: 28.02.2023)

2. Нормаматов С. Ўзбек луғатчилигининг шаклланиши ва ривожланишида жадид маърифатпарварларининг ўрни: Филол. Фан. доктори дис. – Т.: 2019. Б. 127.

3. A.Rasulova, & G. Abdullayeva. (2023). FORMAL RESEARCH IN CHILDREN'S POETRY AND ITS ARTISTIC-AESTHETIC FUNCTION. World Bulletin of Social Sciences, 21, 128-130. Retrieved from <https://www.scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/2565>

4. Ахмедова, Н. М. (2017). В помощь арифметике. Молодой ученый, (4-2), 14-15.



## PXANSORI TARIXI VA UNING HOZIRGI KUNDAGI O`RNI.

Mahmudov Muzaffar UzDJTU 3-bosqich talabasi.

[mahmudovmuzaffar248@gmail.com](mailto:mahmudovmuzaffar248@gmail.com)

Annotatsiya: ushbu maqolada pxansori tarixi, kelib chiqishi, evolutsiyasi va hozirgi kundagi tutgan o`rni haqida ma`lumot berib o`tiladi.

Kalit so`zlar: koreys teatri, pxansori, qo`shiq, sahna, san`at.

Dunyoda barcha xalqlarning o`z san`ati, teatri, qo`shiqlari bor. Koreys teatr tomoshalarining kurtaklari qadimgi marosimlar bilan bog`liq. Teatr tomoshalarining alohida turi pxansori bo`lgan. Pxansori – bu musiqiy-dramatik janr bo`lib, unda bir aktyor – kvande nog`ora jo`rligida dramatik sahnani bir o`zi bir nechta rollarni o`ynash orqali ijro etadi. Bunda u matnni o`qiydi (kuykaydi). Koreys olimlari pxansori XVIII asrda janubiy provinsiyalarda paydo bo`lgan va xalq qo`shiqlari negizida rivojlangan deb taxmin qiladilar. “Chxun Xuan”, “Quyong”, “Xinbu” kabi mashhur qissalarining syujetlari azaldan pxansori shaklida tarqalgan va xalq aktyorlari – kvande repertuariga kirgan.

XIX asrda pxansori adabiyotga kirib keladi, qo`shiqlarning matnlarini to`quvchi shoirlar paydo bo`ladi. Pxansori teatrining rivojlanishida Sin Chjexyoning xizmatlari kattadir. Aytishlaricha, uning o`zi ham yoshligida shunday qo`shiqlarning mohir ijrochisi bo`lgan. Sin Chjexyo xalq aktyorlari – kvandega homiylik qila boshlagan va ijrochilik mahorati maktabini tashkil qilgan. Bu maktabdan taniqli ashulachilar yetishib chiqqan, eng muhimi ular kvande, ayollar va hatto bolalarga ham ta`lim bera boshlaganlar. XIX – XX asr lirik-epik doston qo`shiq qilib aytiladigan pxansori teatri gullab yashnagan davrdir. Doston aktyorlar – kvand (ko`cha artistlari – qiziqchilar, mashshoqlar, ashulachilar, jonglyorlar, akrobatlar) tomonidan ijro etilgan. Mazkur janr XVII – XVIII asrlarda shakllangan. Ayni shu davrda pxansori teatr sahnasida ham qo`yila boshlagan. Pxansori nazariyatchisi va amaliyotchisi Sin Chjexyoning islohotchilik faoliyati mazkur janr yanada rivojlanishida hamda haqiqiy sahna san`atiga aylanishida muhim tarixiy ahamiyat kasb etgan. Sin Chjexyo o`z o`tmishdoshlari tajribasini o`rgangan va umumlashtirgan, pxansori ijrochilik san`atini qayta tuzish daturlarini ishlab chiqqan. Eng mashhur librettolar “Chxun Xyan haqida qo`shiq”, “Sim Chxon haqida qo`shiq”, “Xinbu haqida qo`shiq”, “Qirg`ovul haqida qo`shiq” va boshqalarni yozib olgan, tahrir qilgan. Pxansori ijrochilik amaliyotida ilk bor Sin Chjexyo rollarni bir necha kvande o`rtasida taqsimlash tartibini joriy etgan, shuningdek ayol rollari ijrochilarini tarbiyalagan. Sin Chjexyo olti pxansori muallifi bo`lgan. Bular “Chxun Xyan haqida qo`shiq”, “Sim Chxon haqida qo`shiq”, “Quyong haqida alohida qo`shiq”, “Qizil devor haqida qo`shiq”, “Oshqovoq haqida qo`shiq”, “Xo`rlangan

odam haqida qo`shiq". Sin Chjexyo yaratgan pxansolar kitobiy, adabiy asosga ega ekanligi bilan ajralib turgan. Uning pxansorilari zamirida o`ziga xos tilga ega bo`lgan, xitoy she`riy obrazlariga, xitoy shoirlarining she`rlaridan olingan iqtiboslarga boy adabiy matnlar yotadi. Ammo Sin Chjexyo o`z asarlarini "koreyscha – xitoycha uslub" da yozishga harakat qilgan bo`lsa kerak. Zero mazkur uslub an`anaviy qissa tiliga xos bo`lgan. Bunda pxansorida "xitoizmlar" koreyscha o`qilishida va koreyscha tarjimasiz berilgan, lekin ierogliflar bilan "jihozlangan".

Pxansori adabiy syujetida bir qancha muhim epizodlar farqlanadi. Har bir epizod ikki qismga bo`linadi: kirish – aniri, bu yerda vaziyatga tavsif beriladi, undan keyin voqeaning o`zi bayon etiladi. Bunda kirish qismi nasrda, voqea – kasa uskubidagi (to`rt turoqli) she`rda bayon qilinadi. Sin Chjexyo adabiyotga koreys tilidagi yangi qo`shiq – drama janrini kiritadi. Asta - sekin uning izdoshlari – "Kyomon – undon" ma`rifatchilar harakati ishtirokchilari bo`lgan yozuvchilar paydo bo`ladi. Masalan, taniqli ma`rifatchi Li Xechjo (1869 – 1927) didaktik nasr muallifi, an`anaviy qissalarning mashhur syujetlariga pxansori yaratadi. Bular "Zindondagi gul" Okchun xva ("Sim Chxon" syujeti asosida), "Daryodagi nilufar" Kansan yen ("Sim Chxon" syujeti asosida), "Qaldirg`och oyog`i" Yoniy kak ("Xinbu" syujeti asosida). Bu asarlar yapon istilosidan keyingi davrda yozilgan va o`z tili, tarixi, madaniyatini saqlab qolish chet el istilosi sharoitida, millat yashab qolishining bosh omilidir, degan fikrni tarqatishga harakat qilgan ma`rifatchilarning g`oyalari ruhida yaratilgan. Shuni qayd etish lozimki, xalq ijodining qo`shiq janrini adabiyot mulkiga aylantirgan Sin Chjexyo ijodi ham milliy madaniyatni targ`ib qilish jarayonlarini qo`llab quvvatlagan. Sin Chjexyo pxansorilarini hatto podsho saroyida ijro etilgani tasodifiy bir hol emas. Xalq ijodi asarlarini adabiyot mulkiga aylantirish niyati mashhur xalq syujetlari asosida xitoy tilida dramalar yaratgan yozuvchilarni ham boshqargan bo`lsa kerak. XVIII asr oxirida "Xalqdan yuksak adabiyotga" harakati bir qator shoirlar tomonidan koreys she`riyatini (shu jumladan koreys qo`shiqlarini) xitoy tiliga tarjima qilish boshlandi. Masalan, shoir Sin Vi klassik sichjolarning xitoy tiliga tarjimalari to`plamini tuzdi. Bu to`plamga u 40 ta she`rni kiritdi va uni "Kichik akpular" So akpu deb nomladi (ma`lumki Koryo davrining xalq qo`shiqlarini xitoy tiliga tarjima qilgan XIV asr shoiri Li Chjexyoning to`plami ham shunday deb nomlangan). Bundan tashqari, Sin Vi xitoy tilidagi 12 she`rda pxansori teatrining tomoshalarini tasvirladi ("Teatr tomoshalari haqida she`rlar" – "Kvangik cholg`u" to`plami).

Shunday qilib, XIX asrda mualliflik adabiy drama janri vujudga kelgan. U xalq ijodi syujetlaridan bahra olgan. Bu yerda birinchi o`rinni, hech shubhasiz, milliy



qo`shiq – drama janri – pxansori egallaydi. Mazkur janr koreys tomoshabinlari (tinglovchilari) orasida hozirgi kunda ham mashhur.

**Adabiyotlar ro`yxati.**

O`rganilayotgan mamlakat adabiyoti (Koreya) 2010 V.Kim, U.Saydazimova

Koreys adabiyoti tarixi 2014 U.Saydazimova



**Kashtan daraxtining morfologik tuzulishi**  
**Jumayeva Dilnoza Abdusattor qizi**  
**Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti**  
**Biologiya(turlari buyicha) 3bosqich**  
[jumayevad34@gmail.com](mailto:jumayevad34@gmail.com)

**Kalit soʻzlar;** yongʻoq meva, manzarali daraxt, nektarli oʻsimlik, gullar, barg, changchisi, kraxmal, vitaminlar, qand, azotli moddalar, shamol orqali chanhlanuvchi, magʻzi, baland boʻyli, daraxt, endospermasiz, urugʻpalla, otalik gullari, onalik gullari, meva.

**Annotatsiya;** Kashtan qoraqayindoshlar oilasiga mansub manzarali daraxt boʻlib, 14 ta turi maʼlum va ulardan hozirgi kunda asosan 4 ta turi ekiladi. Kashtan daraxtining mevasi yongʻoqcha meva boʻlib, sentabrdan noyabrgacha pishadi. Yongʻogʻi magʻzida 58% kraxmal, 19% qand, 9 — 12% azotli moddalar, 3% moy, vitaminlar, limon va olma kislotalari mavjud. Yogʻochida, poʻstlogʻida, barglarida 5—15% tannidlar bor. Gullaridan olingan asal oʻziga xos xushboʻy hidga ega. Poʻstlogʻidan turli boʻyoqlar ishlab chiqariladi Kashtan urugʻidan koʻpaytiriladi, ayrim navlari payvand qilinadi.

**Kashtan (Castanea)** — qoraqayindoshlar oilasiga mansub daraxtsimon oʻsimliklar turkumi, yongʻoq mevali va manzarali daraxt. Shimoliy Amerika, Sharqiy Osiyo, Oʻrta dengiz sohillari, Marokash, Tunis, Kavkaz mintaqalarida tarqalgan. Hozirda 14 ta turi maʼlum. Asosan, 4 ta turi ekiladi. Kashtan 500—1000 baʼzi mintaqalarda 3000 yilgacha yashaydi.

Koʻp yil yashaydigan ekma, magʻzi yeyiladigan, chin kashtan (*castanea sativa*) Qora dengiz boʻylari va Zakavkazyeda, togʻlarning quyi va oʻrta mintaqalarida oʻsadi. Boʻyi 35 m, tanasi diametri 2 m ga boradi. Novdalari qirrali, yashil-qizgʻish rangli, soʻng qizgʻirqish rangga kiradi, barglari spiral shaklda joylashadi, kuzda toʻkilib ketadi. [1] Bandi kalta, barg plastinkasi keng lansetsimon, dagʻal, chetlari yirik tishchali, patsimon tomirli. Yon bargchalari ingichka, choʻzinchoq boʻlib, tez toʻkilib ketadi. Shox-shabbalari keng . Bargi oddiy, yirik, uzunligi 15—23 sm. Barg chiqarganidan keyin gullaydi. Gullari yigʻilib, 35 sm uzunlikda boʻlgan boshhoq hosil qiladi. Bu boshhoqda ham otalik, ham onalik yoki faqat otalik gullari rivojlanishi mumkin. Kashtan, odatda, bir uyli oʻsimlik boʻlsa-da, ikki uyli tuplari ham uchraydi, bu paytda birida faqat otalik, ikkinchisidan onalik gullar hosil boʻladi. Kashtanning gullari shamol vositasida va hasharotlar yordamida changlanadi. Onalik gullari 1-3 tadan boʻlib, joylashadi. Ular toʻrt oʻrama ichida yashirin yotadi, gullash paytida esa faqat tumshuqchasi va qisman gulqoʻrgʻoni koʻrinib turadi. Oʻrama ichida 1 tadan 3 tagacha

yong'oq (kashtan) bo'ladi. [2] Nektarli o'simlik. Mevasi yong'oqcha yupqa yog'ochlangan, dag'al, jigarrangda, yaltiroq, tub qismida rangli dog'i bor. Yong'og'i sharsimon tuxumsimon bo'lib, yonidan ezik. Urug'i endospermasiz, embrioni oq-sariq rangda, urug' pallasini seret, plastik moddasi juda ko'p. Har birida 1 tadan urug' bo'ladi. Daraxti o'tqazilgach, 5—10-yilda meva beradi. Yorum'sevar, namsevar, issiqlikka talabchan. Mevasi sentabrdan noyabrgacha pishadi. Yong'og'i mag'zida 58% kraxmal, 19% qand, 9 — 12% azotli moddalar, 3% moy, vitaminlar, limon va olma kislotalari mavjud. Yog'ochida, po'stlog'ida, barglarida 5—15% tannidlar bor. Gullaridan olingan asal o'ziga xos xushbo'y hidga ega.[3] Yog'ochi vino bochkalari, faner, mebel ishlab chiqarishda, duradgorlikda, kemasozlikda, qurilishda qo'llaniladi. Po'stlog'idan turli bo'yoqlar ishlab chiqariladi. Kashtanning bir necha navlari mavjud. Ko'proq mayda mevali Lion va Neapolitan navlari tarqalgan. O'zbekistonda uning faqat bitta turi tarqalgan bo'lib, ot kashtani (kashtan konskiy) nomi bilan ma'lum (yong'og'ini yeb bo'lmaydi), manzarali daraxt sifatida ekiladi. Kashtan urug'idan ko'paytiriladi, ayrim navlari payvand qilinadi.

### **Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati;**

1. A.Q. Qayimov, E.T. Berdiyev Dendrologiya Toshkent-2012. 280-281- betlar.
- 2.E.T. Berdiyev, SH.F. Gulamxodjayeva "Manzarali daraxtlarni ko'paytirish" Toshkent 2020. 170-bet.
- 3.O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.

**Exchange of methods in language teaching  
Bektoshev Khudaynazar Shodmon o'g'li  
is a student of group 301  
of the Faculty of Foreign Philology  
of Termiz State University**

**Annotation:** This article discusses the exchange of skills and methods of teachers of different countries and higher education institutions in language teaching.

**Keywords:** education system, teaching - methodical, pedagogical staff.

Currently, in our country, attention is being paid to young people and their provision with qualified education. in accordance with the priority tasks of socio-economic development, it was adopted in order to fundamentally revise the content of personnel training, to create the necessary conditions for the training of highly qualified specialists at the level of international standards. In the years of independence, based on the real demands of the economy and social life, great work was done on the modernization of the higher education system in our country, the introduction of modern forms and technologies of teaching, and the improvement of specialization areas for the training of specialists. At the same time, the results of the study of the current situation in the higher education system by the Working Group, formed on the basis of the order of the President of the Republic of Uzbekistan on October 8, 2016, show that the scientific and pedagogical potential in a number of higher education institutions is still at a low level remains, the teaching-methodical and information supply of the educational process does not meet modern requirements, the material and technical base needs to be systematically updated. It has been more than 2 years since the establishment of the educational inspection of the quality of education under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan. During the past period, the study of advanced foreign experiences in performing the tasks assigned to the inspection and the assessment of the quality of education in our country have been introduced. targeted work is being carried out. At the moment, measures are being taken to improve the advanced aspects of foreign pedagogy, to introduce new subjects into the curriculum, and to turn it into one of the most advanced pedagogies in the world. The work on improving the qualifications of pedagogues and scientific personnel by widely introducing advanced international experience into the educational process in the higher education system, establishing close cooperation relations with leading foreign scientific and educational institutions, is not being carried out at the required level. . Termiz State University has well-established international cooperation relations with foreign HEIs. to improve the professional skills of professors and teachers, to improve



the qualifications of pedagogical staff, as well as to improve their qualifications at foreign partner higher educational institutions, to receive master's and doctoral studies, as well as to undergo retraining and improvement of qualifications at the base higher educational institutions of our republic. In particular, at the Faculty of Foreign Philology of Termiz State University, Doctor of Philology, Professor Koroleva Vera Vladimirovna of Vladimir State University of Russia, conducts an interesting lesson for students of the Department of English Language Teaching.

While conducting classes on topics such as "Global English" and "Suitable course materials for ESP", he introduced students to the modern and unique features of the language teaching methodology, as well as the language teaching methodology at the university where he works. gave detailed insights about the scientific works he has carried out. Also, in order to increase the academic mobility of professors and teachers based on the memorandum between the universities, Vladimir State University teachers N.V. Mitiushina and senior teacher Y.N. Ionova are undergoing 2-week training at the Department of English Language Teaching Methodology of Termiz State University. The students, who have great impressions from the interesting activities, are satisfied with this visit and the lessons. At the same time, it was not only a novelty for students, but also a real exchange of methods and practice for teachers.

### **References**

1. Richard J.C, Rogers T.S. Approaches and Methods in language Teaching/Cambridge university press,- 2010.
2. Djalolov J. B. Инглиз тили ўқитиш методикаси. Тошкент, 2010
3. Broughter G. Teaching English as a foreign language. 1996.
4. Кашина Е.Г. Традиции и инновации в методике преподавания Иностранного языка. САМАРА: Универс-групп, 2006. – 75 с.

YER OSTI KAMERALARIDAN HAR XIL MAQSADLARDA  
FOYDALANISH

O.Sh. Yormatov., U.T. Toshtemirov

*Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali  
Konchilik ishi kafedrası 3d-20KI guruh talabasi.,*

*Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali  
Konchilik ishi kafedrası dotsenti v.b., texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Annotatsiya:** Keyingi yillarda xar hil vazifaga xizmat qiladigan yer osti kameralaridan foydalanish aytarli darajada kengaydi. Ushbu maqolada yer osti kameralaridan har xil maqsadlarda foydalanish haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** yer osti kameralarida, oziq – ovqat mahsulotlari, sovitgich kameralari, qattiq jinslar massivi.

Havo hujumi vaqtida yer ostidagi bekinadigan va shunga o'xshash inshootlarni zarurligini izohlashga xojat ham yo'q. Odatda bunday yer osti inshootlari mahkam turg'un jinslarda bunyod etiladi. Quyida yer osti kameralaridan foydalanish doirasini kengayganligi haqida ba'zi ma'lumotlar keltirilgan:

- yonilg'i saqlaydigan omborlar;
- sovitgich kameralari;
- havo hujumidan saqlanish uchun inshootlar majmui;
- yer osti harbiy inshootlar;
- oqova suvlarni tozalash uchun bunyod etilgan inshootlar majmui;
- har xil oziq-ovqat mahsulotlari va havfli materiallarni saqlash uchun qurilgan yer - osti omborlari;
- xavfli ishlab chiqarish korxonalarini joylashtirish uchun yer osti inshootlar majmui;
- yer osts avtomobil garajlari va uskunalari ombori;
- har xil vazifalarga mo'ljallangan omborxonalar.

Bundan keyin yer osti inshootlaridan foydalanish doirasi kengayib borishini kutish kerak, chunki keyingi bir necha yillardan beri atrof muhitni muhofazasi haqida keng doirada qizg'in bahs munozaralar olib borilmoqda. Ayniqsa katta shaharlarni yer ostini o'zlashtirish muommosidir. Bu masala ham o'z yechimini kutmoqda.

Chiqindilarni saqlashdan tashqari ifloslangan oziq – ovqat mahsulotlari keyin qayta ishlashi uchun, ehtimol yer ostida atrof muhitni kuchli ifloslaydigan mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonani joylashtirish mumkin.



Amerika olimlarining ilmiy izlanishlari, eng ko'p ifloslantiruvchi (zararlovchi) mahsulotni ham qayta ishlatish mumkinligini isbotlagan, demak atrof muhitni muxofazasi sanoat mahsulotlaridan to'laroq foydalanish imkonini ham berar ekan.

Shunday qilib, foydalanilmagan qattiq jinslar massivini, muhim mahsulotlarni saqlaydigan potentsial ombor deb, qarash mumkin. Portlatish texnologiyasi nuqtai nazaridan qaraganda yer otsida kerak bo'lgan hajm va shakldagi kamerani bunyod etish qiyinchilik tug'dirmaydi. Ammo kameralarni loyihalashda shuni hisobga olish kerak—ki kamera ustidagi jinslar qatlamini qalinligiga, kameraga kiradigan lahimlar, yo'laklar uzunligiga, kamerani kengligiga atrofidagi jinslarni mahkamligiga va turg'unligiga bog'liq.

Yer ostida kamerani juda chuqur joylashtirganda nafaqat uni qurish jarayoniga sarflanadigan vaqt, keyin esa uni ekspluatatsiya qilish davrida ham ma'lum qiyinchilik tug'diradi. boshqa tomondan qaraganda kamerani kam chuqurlikka ya'ni yer yuzasiga yaqin joylashtirishda texnikaviy sabablarga ko'ra ko'p qiyinchiliklar vujudga keladi, chunki yer yuzasiga yaqin yuzadagi jinslarni turg'unligi va mahkamlik darajasi odatda chuqurlikdagi jinslarga nisbatan kam bo'ladi.

Yer osts kameralarini kengligi juda katta bo'lishi mumkin emas xatto juda mahkam, turg'un jinlarda ham.

Ammo foydali qazilmalar qazib olinadigan lahimlarga ta'sir etadigan kon bosimidek kon bosim kameralar bunyod etishda bunday muammo yuzaga keltirmaydi. Shuning uchun turg'un jinlarda kameralarning kengligi 20 m ga qadar kengaytirish imkoni mavjud.

Yer osts kameralarini joylashtiradigan joyni tanlashda tog' jinslarini yotishini, geologik sharoitini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Ko'pchilik loyihalarni tuzishdan avval joyning geologik xususiyatlari o'rganiladi. Olingan natijalar asosida yer osts kameralarini nafaqat joylashtiradigan joyini va ko'pchilik holatda uning geometrik o'lchamlari ham aniqlanadi. Keyingi yillarda tog' jinslarini xususiyatlarini aniqlash usullari takomillashtirilgan bo'lsa ham geologlar portlatuvchilar bilan birgalikda avvaldan geologik izlanishlar olib borib mukammal o'rganib chiqadi, bu portlatish ishlari olib borish texnologiyasini tanlashda ishonchliroq natijalar olish imkonini ta'minlaydi.

Tog' jinslarini asosiy xarakteristikasini mikdor ko'rsatkichlarini yetarlicha zaxirasini aniqlash uchun massivni o'rganish tadqiqot qilish usullari yetarlicha takomillashtirilgan bo'lishi kerak.

**Adabiyot**

1. [http://www.elibrarv.ru/menu\\_info.asp](http://www.elibrarv.ru/menu_info.asp)
2. <http://info.uibk.ac.at/c/c8/c813> - Institute of Geotechnical and Tunnel Engineering,
3. <http://www.agmk.uz>
4. Sagatov N.X. Kon ishi asoslari. O`quv qo`llanma. Toshkent. TDTU, 2005
5. Sagatov N.X. Meliqulov A.D, Shamirzayev X.X. Foydaliqazilmakonlariniyerostiusulidaqazish. O`quv qo`llanma. Toshkent, TDTU, 2004
6. Михеев О.В., Виткалов В.Г. и др. Подземная разработка пластовых месторождений. Практикум. М.: МГГУ, 2001. –488 с.



## METAFORA VA UNING BADIY ADABIYOTDAGI O'RNI

Do'lanova Ozoda Yuldashevna

Termiz davlat universiteti,

Lingvistik: o'zbek tili mutaxassisligi magistranti

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada metafora va uning badiiy adabiyotdagi o'rni hamda ahamiyati haqida so'z boradi. Maqola davomida asosli fikr hamda mulohazalardan foydalanilgan.

*Kalit so'zlar:* metafora va uning badiiy adabiyotdagi o'rni, semantika qonunlari, o'yin tasviri.

Metafora - turli ob'ektlarni bir-biriga bog'lash orqali yaratilgan qo'shloq tasvir, masalan: lochin - odamga. Shuningdek, metafora obrazning bevosita davomchisidir, chunki undagi obraz asta-sekin o'chiriladi va ma'no standart semantika qonunlariga muvofiq tekislanadi. Rasm kategorik xatolikka yo'l qo'ymasa-da, metafora faqat kategorik chegaralarni buzish sharoitida paydo bo'ladi. U ob'ektni tasniflashda siljishni keltirib chiqaradi, uni o'zi tegishli bo'lmagan sinfga havola qiladi, masalan: o'yin tasviri - hayotga. Bundan tashqari, tasvir bitta bo'lsa-da, metafora ikki va ikki komponentli. U tasvir va undan "qobiqlangan" ma'nodan iborat [Arutyunova 1998: 323-324].

Belgi ismlarning sinonimidir *tasvir* va *belgisi*. A. A. Surkov [KLE 1971: 826] o'zining "Qisqa adabiy ensiklopediya" asarida ham ismga ta'rif beradi. *ramzi*, uning "tasvir" va "belgi" tushunchalariga yaqinligini ta'kidlaydi. Surkovning fikricha, keng ma'noda ramz o'z ramziyligi jihatida olingan tasvir bo'lib, u obrazning butun organikligi va bitmas-tuganmas noaniqligi bilan ta'minlangan belgidir, deyish mumkin. A. A. Surkovning fikricha, har bir ramz tasvirdir (va har bir tasvir, hech bo'lmaganda, ma'lum darajada, ramzdir); biroq timsol kategoriyasi tasvirning o'z chegarasidan chiqib ketishiga, qandaydir ma'no mavjudligiga, tasvir bilan ajralmas tarzda qo'shilib ketgan, lekin unga o'xshash emasligiga ishora qiladi. Bunga misol sifatida quyidagi jumlaning keltirish mumkin: *Filialli kaptar - ramz (= rasm)tinchlik*. Demak, ramzning asosini tasvir tashkil etadi, uning ustiga belgi ham, belgi ham qurilgan [Arutyunova 1998: 338].

Metafora va ramz o'rtasida juda ko'p umumiylik mavjud, ammo shunga qaramay, ularning semiotik tushunchalar ierarxiyasidagi o'rni nuqtai nazaridan ularni bir-biriga tenglashtirib bo'lmaydi. Keling, avvalo metafora va ramz o'rtasidagi o'xshashlikni aniqlaylik.

Ramz va metafora tushunchalari obrazga asoslanganligi sababli bir-biriga yaqin va kesishadi. Metafora va timsolning paydo bo'lishi olamning badiiy taraqqiyot jarayonida o'z-o'zidan amalga oshiriladi, lekin ularning ma'nosi to'liq shakllanmagan. Metafora ham, ramz ham talqin qilish ob'ekti, shuning uchun ular aloqa vositasi bo'lib

xizmat qila olmaydi. Na metaforalar, na belgilar xabarlarini bildirmaydi [Arutyunova 1990: 22-23].

Keling, timsol va metafora o'rtasidagi farqlarga to'xtalib o'tamiz. Agar belgi funksional bo'lsa, metafora semantikdir. Shu bilan birga, metafora voqelik bilan bog'liq bo'lgan muayyan mavzuni ifodalaganidek, ramz abadiy va tushunib bo'lmaydigan, ammo haqiqiy haqiqatni anglatadi. Metafora predmet obrazini yaratish, voqelikni idrok etishni chuqurlashtiradi, ramz esa uni chegaradan tashqariga olib chiqadi.

Belgi metaforadan farqli ravishda predikat pozitsiyasiga ega emas. Belgi grafik tasvir tomon tortiladi, metafora esa qog'oz so'ramaydi. Agar metafora xarakterlovchi vazifani bajarsa, belgi deytik vazifani bajaradi. Belgi va metafora o'rtasidagi farq nafaqat ma'lum bir ekstralingvistik funktsiyaning mavjudligi, balki uning juda semantik tuzilishida hamdir. Belgi uchta komponentdan iborat: ishora qiluvchidan, belgilovchi va semiotik bog'lanish - belgining tomonlari o'rtasida o'ziga xos munosabatlarni o'rnatadigan strukturaning asosiy elementi. Ayni paytda, yuqorida aytib o'tilganidek, metafora o'z tuzilishiga ko'ra ikki komponentli bo'lib, undagi semiotik aloqa ajratilmagan. Funksional jihatdan belgi metaforadan imperativligi bilan ajralib turadi, metafora esa bu xususiyatdan butunlay mahrum.

Metafora va personifikatsiya, metonimiya, qiyoslash *shaxslashtirish* Tasvirlashning bu usuli, batafsil metaforada o'lik tabiatning qandaydir hodisasi tirik odamning barcha xususiyatlariga ega bo'lsa, deyiladi [Tomashevskiy 1998: 29]. Misol uchun:

Mana shimol, bulutlarni ushlaydi,  
U nafas oldi, qichqirdi - va u mana  
ketadi *sehrgar* qish.

Ayoz chaqnadi. Va biz xursandmiz  
Moxov *Ona* qishlar.

[Pushkin 1986: 304].

Shuningdek, mualliflar jamoasiga ko'ra *Til tarixi va 20-asr rus she'riyati bo'yicha insholar*[Ocherklar 1994: 13], shaxslashtirish denotatsiyaga xos bo'lgan ma'naviyat me'yoring o'sishidir. U metaforaning differensial belgisi rolini o'ynaydi, shuning uchun ko'pincha uning atributi sifatida qaraladi. Bundan tashqari, umumiy til (rasmii) metafora va personifikatsiya o'rtasida genetik o'zaro bog'liqlik mavjud bo'lib, unda umumiy til metaforasi personifikatsiya o'rnini egallaydi va ob'ektiv ma'noni tiklaydigan shaxs metafora o'rnini egallaydi. Misol uchun: *O'qlar devordan pastga tushdi. Soat tarakanga o'xshaydi. Undan voz keching, nima uchun plastinkalarni tashlang, signal chaling, ko'zoynakni sindiring?* (1918). Ushbu misolda soatning

ob'ektivlashgan tasvirini tashkil etuvchi verbal-assotsiativ qator umumiy til metaforasi asosida ifodalanishi mumkin. *vaqt ishlayapti (soat ishlayapti)* - o'qlar qochib ketdi - devor soati - o'qlar devor bo'ylab qochib ketdi - devor bo'ylab yugurish - tarakan; shuningdek, soatlardagi raqamlar, hamamböcekler kabi [...] [Insholar 1994: 26-27].

So'nggi paytlarda lingvistik adabiyotda metafora kabi personifikatsiya badiiy voqelikni ifodalash, uni uydirmalik tamoyiliga muvofiq tashkil etish usuli sifatida qarala boshlandi. Biroq, metafora va shaxslashtirish o'rtasida ham ba'zi farqlar mavjud. Avvalo, ularning asosiy farqini ko'rsatamiz. Bu shuni anglatadiki, agar metaforizatsiyaning umumiy printsipi ko'rsatilgan tafsilot yoki xarakteristikaga o'rnatilgan ob'ektiv analog bo'lsa, unda taqlid qilishda bunday analog bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun personifikatsiya semantik siljish bilan bog'liq bo'lmagan trope sifatida aniqlanadi. Bundan tashqari, sub'ekt metaforasi o'xshashlik orqali ma'noni uzatishga asoslangan bo'lsa, tasvir elementlarining vizual ravshanligi ixtiyoriydir. Uning uchun obrazli eskizning yaxlitligi muhimroqdir.

### Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat tili" "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" haqidagi qonunlari. "Xalq ta'limi".
2. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. T. 1993. 23  
Hozirgi o'zbek adabiy tili. T. 1996
3. Azizov O. Tilshunoslikka kirish. T. 1963.
4. Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov R. O'zbek tili. T. 1979. 1-2
5. Shodmonov E., Nafasov T. Hozirgi o'zbek tili. Laboratoriya mashqlari. T. 1986
6. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

**“Boburnoma” asarida uchraydigan shaxs otlari va ularning ma’naviy guruhlari”**

**Juraqulov Mirjalol**

**BuxDu filologiya va tillarni o‘qitish(o‘zbek tili) fakulteti 3-kurs talabasi**

**ANNATOTSIYA**

Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asaridagi uch bob bo'yicha tahlillar amalga oshirilgan bo'lib, tahlillar asosan shaxs otlari mavzusiga doir. Maqolada boblar tarkibidagi shaxs otlarining barchasi tahlilga tortilmadi, aksincha shaxs otlarining arxaik va tarixiy namunalari bo'yicha tahlillar qilindi

**Kalit so'zlar:** sarkarda, shoir, tarixchi, geograf, atoqli, mavhum, shaxs, arxaik, kasb.

**ABSTRACT**

In this article, three chapters of Zahiriddin Muhammad Babur's "Baburnoma" have been analyzed, and the analyzes are mainly related to the subject of personal nouns. In the article, not all personal nouns in the chapters were analyzed, on the contrary, archaic and historical examples of personal nouns were analyzed.

**Key words:** general, poet, historian, geographer, famous, abstract, person, archaic, profession.

**KIRISH**

2. Prepared based on the data of the Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. <https://stat.uz/>
3. Mexmonov, S., 2020. Actual issues of electronic commerce development in the republic of Uzbekistan. *Архив научных исследований*, 33(1).
4. Uzbekistan takes 78th place in UNCTAD B2C e-commerce index 25/03/2015
5. The UNCTAD B2C e-commerce index 2020.

<sup>8</sup> Prepared based on the data from UNCTAD. (2020). The UNCTAD B2C e-commerce index 2020.

6. Bhattacharya S., Momaya K. S., Iyer K. C. Benchmarking enablers to achieve growth performance: a conceptual framework //Benchmarking: An International Journal. – 2020.

7. Akimova L., Osadcha O., Akimov O. Improving accounting management via benchmarking technology //Фінансово-кредитна діяльність: проблеми теорії та практики. – 2018. – №. 1. – С. 64-70.

**Boshlang'ich ta'lim o'quvchilari ijodiy faoliyat rivojlantirishning maqsad va vazifalari muhim vositalardan biri sifatida**

**Yusupova Sevara Davletiyar qizi**

*Boshlang'ich ta'lim fakulteti*

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti*

**Annotatsiya:** Bu mantiqiy o'yin. Bolaga 4ta narsaning rasmini bering. 3tasi bitta umumiy tushunchaga daxldor bo'lsin. U "oriqcha"sini topsa, rag'batlantiriladi. Rasmlar to'plami turlicha bo'lishi mumkin: stol, stul, krovat va choynak; ot, mushuk, it va qisqichbaqa; archa, qayin, chinor va qulupnay; bodring, sholg'om, sabzi va quyon. Agar bola hamma topshiriqlarni to'g'ri bajara olsa, ajablanmang. Uning fikrlari va asoslarini tinglashga harakat qiling. Chunki bolaga quyon bilan sabzining bir-biriga bog'liqligi bodring va sholg'om kabi sabzavotlar qatoridan sabzini ajratib olishga asos bo'lishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** nutq, so'zlar, o'quvchi, boshlang'ich ta'lim

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning "Mustaqillikni mustahkamlash, jamiyatni demokratlashtirish va yangilash birinchi darajali ustuvor maqsad va vazifa bo'lib qolaveradi ... Inkor etib bo'lmaydigan ushbu haqiqat shu muqaddas zaminimizda yashaydigan har bir insonning qon-qoniga, vujudiga singib ketishini istardim"[1] deb ta'kidlashi ta'lim sohasini yangilashda ham ustuvor vazifa bo'lib sanaladi. Chunki shu jamiyatda yashaydigan inson keng faoiyatga tayyorlanar ekan, uning rivojlanishi, tafakkurini yangilashda o'quv jarayoniga ilg'or texnologiyalarni kiritish, o'quvchilarning erkin, mustaqil fikrlash, ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishni taqazo etadi. Bugungu kunda o'quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirish lozimligi kun tartibidagi muammo bo'lib qolmoqda. 1-4 sinf o'quvchilarida ijodiy faoliyatni rivojlantirishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini e'tiborga olish, ta'limni samarali tashkil etishda darslarni noan'anaviy tarzda o'tkazish, darslarda innovatsion metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoiyatini rivojlantiruvchi o'yinlar bilan tanishib chiqamiz: To'rtinchisi ortiqcha. Bu mantiqiy o'yin. Bolaga 4ta narsaning rasmini bering. 3tasi bitta umumiy tushunchaga daxldor bo'lsin. U "oriqcha"sini topsa, rag'batlantiriladi. Rasmlar to'plami turlicha bo'lishi mumkin: stol, stul, krovat va choynak; ot, mushuk, it va qisqichbaqa; archa, qayin, chinor va qulupnay; bodring, sholg'om, sabzi va quyon. Agar bola hamma topshiriqlarni to'g'ri bajara olsa, ajablanmang. Uning fikrlari va asoslarini tinglashga



harakat qiling. Chunki bolaga quyon bilan sabzining bir-biriga bog'liqligi bodring va sholg'om kabi sabzavotlar qatoridan sabzini ajratib olishga asos bo'lishi mumkin. Unga sabzavot va jonivorlar degan tushunchaga asoslanib to'g'ri javobni topishda va quyon "ortiqcha" ekanini bilishda yordam bering. Bunda bolaga umumlashtiruvchi jumlar aytish orqali o'zi javob topishiga imkon yaratib bering. Olamda nimalar bo'lmaydi? Bolaga olamda yo'q narsalarni rasmini chizishni topshiring. Rasmdagi narsa nega olamda yo'qligini so'zlab berishini so'rang. Hamma bir narsa haqida oilada bo'ladigan suhbatlarni biron-bir narsa haqidagi umumiy sifatlar va tushunchalar atrofida tashkil etib, bolalar ham unga jalb etiladi: daraxt nimaga o'xshaydi, nimadan farq qiladi? Daraxt bo'lib turib nega odamlar plastmassa, temir kabilarni kash etadi? U nimasi bilan noqulaylik kashf etadi? Yog'ochdan jihozlar, idishlar, o'yinchoqlar yasagan odam qanday sifatlardan foydalanadi? Yog'och maydalari va qirindilari nima maqsadda ishlatiladi? Yog'och cho'kadimi? Yonadimi? Bo'yaladimi? Nam tortadimi? Qiziydimi? Suv o'tkazadimi? Bo'lishi mumkin – bo'lmaydi. Bu o'yin boy tasavvur va sog'lom fikrni talab etadi. Siz aytayotgan narsalar bo'lishi mumkin yoki aksincha ekanligini bola mushoxada qilib ko'rishi kerak. Agar noto'g'ri javob bersa, navbat yana sizda bo'ladi. Bunda siz bo'ladigan, bo'lmaydigan misollarni aniq keltiring, masalan: "Bo'ri daraxtda o'tiribdi", "Idishda payola pishyapti", "Mushuk tomda yuribdi", "Qayiq osmonda suzib ketyapti", "Qizcha rasm chizyapti", va h.k. Agar sizning va bolalarning farazlari turlicha va kutilmagan tarzda berilsa, o'yin quvnoqroq va qiziqarliroq bo'ladi. Agar ba'zan yanglishib ketsangiz, bu o'yinning faqat qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi. O'z o'rningni top. Agar sinfda u yoki bu mavzu bo'yicha tortishuvlar vujudga kelsa bu metod yordamida muammoning yechimini topish mumkin. Undan ko'pincha tarbiyaviy tadbirning kirish qismida foydalanishadi va o'tilayotgan mavzuni o'rganishga turli xil yondashuvlar mavjudligi A.Sa'diy adabiyot o'qitishda qahramonlarga og'zaki va yozma tavsif berish, S.Dolimov yozma bayon va adabiy ijodiy ishlarni tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalarida o'quvchilar nutqiy boyligining ahamiyatini aytib o'tganlar. Q.Abdullayeva "1-sinfda nutq o'stirish" metodik qo'llanmasida o'quvchilarni tovush va so'zlarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish, savod o'rgatish davrida mantiqiy mashqlarni tashkil etish, didaktik materiallardan foydalanish usullarini yoritgan bo'lsa, K.Qosimova «1-sinf ona tili darslarida lug'at ustida ishlash» qo'llanmasida lug'aviy mashqlarni tashkil etish metodikasi xususida so'z yuritadi. B. Turdieyvning "Yozma nutqni o'stirish yuzasidan praktikum" nomli qo'llanmasida yozma nutqning umumiy nazariy masalalari, yordamchi xarakterdagi yozma ishlar, kitob ustida mustaqil ishlash bilan bog'liq yozma ishlar, ish qog'ozlarini to'ldirish, bayon va insho yozishga o'rgatish masalalari yoritilgan.

### Foydalangan adabiyotlar

1. Abdullaeva Q. va boshq. 1-sinfda o'qish darslari. – T.: «O'qituvchi», 2009.
2. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi Maktabgacha muassasalar xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish Respublika o'quv metodika Markazi // Bolajon tayanch dasturi.T.:2010. 213 b.
3. Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: Sharq,
4. R. Ergashev. Bo'lajak o'qituvchi shaxsida yestetik madaniyatni shakllantirish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. - T., "O'qituvchi", 2017

**Qoraqalpog'iston shimoliy tumanlarida araxis (*Araxis hypogaea* L.)  
yetishtirish va sug'orish texnologiyasi**

**Atabayev Izzat Bazarbay o'g'li**

*Magistr, O'simlikshunoslik (ekinlar guruhi bo'yicha)*

*Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institut*

*O'zbekiston Nukus*

**Annotatsiya:** Yeryong'oq o'simligi moyli o'simlik bo'lib, u moy va oziq-ovqat sanoatida ahamiyali hisoblanadi. Yeryong'oq o'simligi bugungi kunda oziq-ovqat sanoatda ekporti yildan yilga ortiq bormoqda, bu xalqning oziq-ovqatga bolgan talabni qondirish maqsadida yeryong'oq o'simligining ahamiyat katta ekanligini krsatadi. O'zbekistonda yeryong'oqni yetishtirish, dunyo mamlakatlarida bo'lgani kabi, asosan ichki bozorga qaratilgandir [5]. O'zbekistonda 2017 yilgacha 5,5-6,0 ming gektar, 2020 yilga kelib 19 ming gektardan ortiq maydonlarda yeryong'oq asosan takroiyl ekin sifatida ekib kelinmoqda. Takroriy ekin sifatida yetishtirilganda o'rtacha 15-20 s/ga, asosiy ekin sifatida ilg'or innovatsion texnologiyalar qo'llanilganda 30-35 s/gava undan ham yuqori hosil olinmoqda.

**Kalit so'zlar:** yetishtirish, qator oralig'i, suvorish, g'yeryong'oq, kultivatsiya, moy, oziq-ovqat,

Yer yong'oq (*Arachis hypogaeae* L.) qimmatli moy va oziq-ovqat o'simlikdir. Uning tarkibida 45-66% qurimaydigan va istemol qilinadigan moy boladi, u yoqari sifatli konservalar, kandolat mahsulotlari, va margarin tayyorlash uchun ishlatiladi. Uning tarkibida 23-38% oqsillar va vitamin mavjud. Yaqin kelajakda yeryong'oq ekin maydonlarini kengaytirish, bir gektar maydondan olinadigan hosil miqdorini oshirish hisobiga qandolatchilik sanoatini respublikada rivojlantirish va mahsulotlarni xorijiy mamlakatlarga eksportgayo'naltirish borasida ishlar davom ettirilmoqda. Yeryong'oqning vatani -Janubiy Amerika (Braziliya). 16-asrda Janubiy Amerikadan Osiyoga, so'ng Yevropaga tarqalgan. Xitoy va Amerika Qo'shma Shtatlarining ulushiga to'g'ri kelib, aynan shu mamlakatlarda yetishtirilgan mahsulotning 60-80% qayta ishlanadi. Dunyo bo'yicha eng yuqori hosildorlik Xitoy (2,5-3,0 t/ga) va Amerika Qo'shma Shtatlarida (3,0-4,0t/ga) qayd etilgan. O'zbekiston yeryong'oq yetishtirish bo'yicha dunyoda 51-o'rinni, hosildorlik bo'yicha esa 1-o'rinni egallagan, Respublikamizda bu ko'rsatkich o'rtacha takroriy ekin sifatida parvarishlanganda 1,5-1,8 t/ga ni, asosiy ekin sifatida ilg'or fermer xo'jaliklarida yetishtirilganda 3,5-4,0 t/ga ni

tashkil qiladi. O'zbekistonda yeryong'oqni yetishtirish, dunyo mamlakatlarida bo'lgani kabi, asosan ichki bozorga qaratilgandir [5]. O'zbekistonda 2017 yilgacha 5,5-6,0 ming gektar, 2020 yilga kelib 19 ming gektardan ortiq maydonlarda yeryong'oq asosan takroiye kin sifatida ekib kelinmoqda. Takroriy ekin sifatida yetishtirilganda o'rtacha 15-20 s/ga, asosiy ekin sifatida ilg'or innovatsion texnologiyalar qo'llanilganda 30-35 s/ga va undan ham yuqori hosil olinmoqda. Yeryong'oq-*Fabaceae* dukkardoshlar oilasiga, *Arachis hypogaea* L. avlodi va turiga mansub bir yillik moyli o'simlik [2].

Yeryong'oq (*Arachis hypogaea* L.) *Fabaceae* oilasiga mansub bo'lib, bu oila o'z navbatida 70 dan ortiq turlarni o'z ichiga oladi. Shundan faqat bitta turi *Arachis hypogaea* L. madaniylashtirilgan bo'lib, xalq xo'jaligida keng foydalaniladi. Madaniy yeryong'oqning ikkita (*Hypogaea* va *Fastigiata* kenja turlari bo'lib, ular o'z navbatida *Hypogaea* (*hypogaea hirsuta*), *fastigiata* (*fastigiata*, *vulgaris*, *peruviana*, *aequatoriana*) botanik nav guruhlariga bo'linadi. Yeryong'oq issiqsevar, namsevar, yorug'sevar va qisqa kun o'simligi [6]. Yeryong'oqning ildizi o'q ildiz, tuproqqa chuqur kirib boradi, azot to'plovchi tugunaklar hosil qiladi.

Yon tarafdin chiqqan ildizlar asosiy ildizga vertikal holatda joylashgan. Ildizlar 90-120 sm chuqurlikkacha o'sib boradi. O'rtacha yosh ildiz og'irligi tuproq usti qismida shakllangan nihol og'irligining 14 foizini tashkil etadi. Asosiy va yon ildizlar ustida kurtak shaklidagi tugunlar, ya'ni atmosferadagi biologik azotni o'zlashtiruvchi *Rizobium* bakteriyalari joylashgan kurtaklar shakllangan bo'ladi [8].

**Yer tanlash.** Yeryong'oq uchun sug'oriladigan, qumloq, yengil mexanik tarkibli, o'tloqi, bo'z, qora va kashtan tuproqli, ko'p yillik begona o'tlarning (qamish, g'ummay, ajriq, salamalik) urug'lari kam bo'lgan, oxirgi 4-5-yilda yeryong'oq yetishtirilmagan, sug'orish imkoniyati yaxshi bo'lgan maydonlar tanlanadi. Quyosh nuri 6-8 soat tik tushish imkoniyati bo'lgan yosh bog'larning orasiga ham ekib yuqori hosil yetishtirish mumkin. Yeryong'oq uchun eng yaxshi o'tmishdosh ekin kuzgi g'alla, kartoshka bo'lib, sabzavot va poliz ekinlaridan keyin ham ekish mumkin. Sholi va yer yong'oqdan keyin ekish tavsiya etilmaydi. O'tmishdosh. Yeryong'oq donli (bug'doy, arpa, makkajo'xori), kartoshka, ildizmevalilar, sabzavotlardan keyin ekiladi. Yeryong'oq dala ekinlari uchun yaxshi o'tmishdosh bo'lib hisoblanadi. Urug'likni tanlash va ekishga tayyorlash. Urug'lik ekilguniga qadar quruq va salqin joyda saqlanishi zarur. Urug'lik yong'oqlarni ehtiyotlik bilan qo'lda chaqib tayyorlash tavsiya etiladi. Biroq yeryong'oq urug'ligini qo'lda chaqib tayyorlash mashaqqatli ish bo'lib, katta maydonlarga ekishda maxsus chaqish aparatlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Mexanizm yordamida urug'lar qobi Yer osti suvi yuza (0,3-1,0 m) joylashgan, og'ir mexanik tarkibli, toshloq, suv



ko'llaydigan dalalarga ekish tavsiya etilmaydi. Yerni ekishga tayyorlash. Yerni ekishga tayyorlash ishlari o'tmishdosh o'simliklarni qoldiqlarini tozalashdan boshlanadi. Yig'ib olingan begona o't qoldiqlarini daladan olib chiqib tashlash talab etiladi. Kuzgi shudgordan oldin gektariga fosforli va kaliyli o'g'itlarning yillik me'yorining 70-100 foizi beriladi va yer 30-35 sm chuqurlikda shudgor qilinadi.

**Xulosa.** Araxis o'simligi moyli o'simligi va oziq-ovqat sanoatida ahamiyati katta, Qoraqalpog'istonda bu o'simlikning mevasini eksporti yilda-yilga ortib bormoqda. O'simlikning iqtisodiy samaradorligini oshirish, kasalliklarga chidamlilik mexanizmlarini ishlab chiqish, xorijiy ertapishar navlarni respublikamiz iqlimiga moslashtirish va keng maydonlar ekishga tadbiiq qilish ahamiyatli hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Atabayeva X.N., Umarov Z. va boshqa. O'simlikshunoslik, -Toshkent: -Mehnat, 2000,270 b.
2. Atabaeva X.N., Xudayqulov J.B. Yeryong'oq. Monografiya. -Navro'zli nashriyoti. 8,85 b.t., Toshkent, 2019. – 140 b
3. Xudayqulov J.B. Yeryong'oq navlarining tezpisharlik ko'rsatkichlari // O'zbekiston qishloq xo'jaligining «AGRO ILM» ilmiy ilovasi. – Toshkent, 2016. Maxsus son. – b. 26-27. (06.00.00., №1)
4. O'zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo'jalik ekinlari Davlat reestriga 2007-2017 yillarda kiritilgan navlar va duragaylarning tavsifi. Toshkent 2017. 377 b.
5. A.Xoliqov – O'simshilik Tashkent – 2018 241-242 b



ТИББИЁТ ХОДИМЛАРИ ТАЙЁРЛАШДА ТИББИЁТ ҲУҚУҚИ  
ФАНИНИНГ ЎРНИ

ТОШКЕНТ ДАВЛАТ СТОМАТОЛОГИЯ ИНСТИТУТИ

Ибрагимов Шахбоз Рамазанович

Ўролов Мўминжон 311 гуруҳ СТ факультети

Юсупов Сирож 309 гуруҳ БС факультети

[shaxboz\\_ibragimovv@bk.ru](mailto:shaxboz_ibragimovv@bk.ru)

**Мавзунинг долзарблиги:** Хозирги даврда тиббиёт ходимларининг эркин ва самарали фаолияти учун касбий маҳорат билан биргаликда тегишли равишда ҳуқуқий тайёргарлиги ҳам талаб этилади. Чунки сўнгги вақтларда тиббиёт ходимлари билан беморлар ўртасидаги турли хилдаги тиббий ёрдам нуқсонлари кузалмоқда. Тиббиёт ходимларида тегишли ҳуқуқий тайёргарликнинг йўқлиги ёки унинг етарли даражада эмаслиги фуқаролар соғлиғини сақлаш борасидаги ишларга жиддий зиён келтиради ва соғлиқни сақлаш соҳасида қонунчиликни маъминлаш даражасини пасайтиради. Бу эса эса тиббиёт ходимларини Ўзбекистон Республикасининг қонунчилик доирасида маъмурий, интизомий ва ҳатто жиноий жавобгарликка тортилишларига сабабчи бўлмоқда. Шу сабабли тиббий таълим тизимида тиббиёт ҳуқуқи, врач фаолиятининг ҳуқуқий асослари, соғлиқни сақлаш соҳасида қонунчилик асослари каби фанларнинг ўрни кундан кунга муҳим аҳамият касб этиб бормоқда.

**Калит сўзлар:** ТЁН (тиббий ёрдам нуқсонлари), ятрогения, жиноий жавобгарлик, маъмурий ҳуқуқбузарлик, манавий зарар.

**Мавзунинг мақсади:** Тиббиёт ходимларининг ҳуқуқий билимларини янада мустаҳкамлаш ва тиббий фаолиятида юзага келадиган турли хил ҳуқуқбузарликларни олдини ошириш.

**Натижа ва хулосалар:** “Фуқароларни соғлиғини сақлаш тўғрисидаги” Ўзбекистон Республикаси қонуни Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси томонидан 1996 йил 29 августида қабул қилиниб, шу йилнинг 14 сентябридан кучга кирган. Юқоридагиларни қайд этган ҳолда 2002 йилда профессор З.А. Ғиёсов ташаббуслари билан Ўзбекистонда олий тиббий таълим тизимида янги фан – “Врач фаолиятининг ҳуқуқий асослари” ёки бошқача қилиб айтганда “Тиббиёт ҳуқуқи” фани киритилди. Тиббиёт ҳуқуқи фани тиббий олий таълим тизимида йўналишлари бўйича “Даволаш иши”, “Тиббий педагогика” ва “Педиатрия” йўналиши талабаларига 6 курсда, “Стоматология” йўналиши талабалари учун 3курсда ўқитилиши жорий қилинди. Айтилган тиббиёт ҳуқуқи фани бўйича ўқув машғулоти учун 28 соат ажратилган. Амалий

машғулотларда соғлиқни сақлаш соҳасига оид меёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар билан бир қаторда маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексга асосланган ҳолда фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларига тажовуз қиладиган ҳуқуқбузарликлар, аҳоли соғлиғини сақлаш соҳасидаги ҳуқуқбузарликлар, мулкка тажовуз қиладиган ҳуқуқбузарликлар, меҳнат кодексига таянган ҳолда тиббиёт ходимларининг интизомий жавобгарликлари, жиноят ва жиноят-процессуал кодексларига асосланган ҳолда тиббиёт ходимларининг жиноий жавобгарликлари, тиббий ёрдам нуқсонлари, уларнинг турлари ва уларнинг сабаб-оқибатга таъсири каби бир қанча тушунчалар билан танишиб чиқадилар. Алоҳида эътибор тиббий фаолият билан бевосита ҳуқуқбузарликлар яни тиббий ёрдам нуқсонларини ўрганишга қаратилади. Бунда, диагностика, даволаш ва профилактика жараёнларида кузатиладиган тиббий ёрдам нуқсонларинг кужудга келиш сабаблари ҳамда уларнинг ҳуқуқиятларини аниқ мисолларда таъсири ва уларнинг ҳуқуқий баҳоланиши кўриб чиқилади. Мисол тариқасида жорий йилда 48 ёшли А.С. исмли бемор шифокорга кўригидан ўтганида шифокор томонидан онгология муассасасига йўналтирилган. Бемор онколог кўригига борганда диагностика мақсадида хусусий шифоханага йўлланма берилган. Хусусий шифохона мутахассислари томонидан тегишлича диагностик текширувлар олиб борилган ва беморга онкологик касалликнинг аломатлари борлигини айтишган. Бемор эса ўзида ҳеч қандай онкологик касаллик йўқлигига ишониб қайта теширувдан ўтиш мақсадида бошқа тиббий муассасага ихтиёрий мурожаат қилган. Иккинчи марта мурожаат қилганида эса текширувлардан сўнг беморда ҳеч қандай онкологик касаллик ва унинг белгилари йўқлиги аниқланган. Биринчи марта текширувларни олиб борган ходимларнинг хатти-ҳаракатлари тиббиётда диагностик тиббий ёрдам нуқсони ҳисобланади. Шифокорларнинг хатти-ҳаракатига ҳуқуқий баҳо бериш мақсадида бемор томонидан Фуқаролик судига мурожаат қилинганда Фуқаролик суди Фуқаролик кодексининг маънавий зарарга оид 1021 ва 1022-моддаларини қўллаган ҳолда руҳий азоблар учун юз миллион сўм миқдордаги манавий зарар ундириб берилган. Тиббиётда тиббий ёрдам нуқсонлари туфайли беморнинг вафот этишига, ногиронликка, даволаш муддатининг чўзилишига, нотўғри ногиронликка ва шу каби бир қанча оқибатларга олиб келади. Ушбу ҳолатда тиббиёт ходимларининг қонунчиликка тегишли тартибда интизомий, маъмурий ва жиноий жавобгарликка тортилишига сабабчи булди.

**Хулоса:** Юқоридагиларни инобатга олган ҳолда ҳулоса қилганимизда бўлажак шифокорларимизнинг тиббий-ҳуқуқий билимларини ошириш мақсадида,

тиббий фаолиятида тиббий ёрдам нуқсонларининг сабабини тўлиқ англаган ҳолда ўз касбларига фидокорона муносабатда бўлишларини таминлаш мақсадида ушбу фан тиббиёт олийгоҳларида фақат битта курсда эмас балки иккита курсда ўқитилса мақсадга мувофиқ бўлар эди. Бу эса тиббий ёрдам нуқсонларининг камайишига ва сифатли тиббий ёрдам самарадорлигининг ошишига хизмат қилади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Ибрагимов Ш. Р., Шаматов И. Я., Исламов Ш. Э. Особенности повреждений челюстей //Вопросы науки и образования. – 2020. – №. 30 (114). – С. 36-44.
2. Ibragimov, S., Shamатов, I., & Islamov, S. (2020). Features of damage to the jaws. *Issues of science and education*, (30), 36.
3. Ибрагимов, Ш. Р., Исламов, Ш. Э., Нормухаматов, И. З., & Ураков, К. Н. (2022). Характер повреждений челюстей при оказании экстренной медицинской помощи. In *VolgaMedScience* (pp. 352-354).
4. Исламов, Ш., Бахриев, И., Ибрагимов, Ш., & Ойдинов, А. (2021). ХАРАКТЕР ПОВРЕЖДЕНИЙ ВЕРХНЕЙ ЧЕЛЮСТИ. *Журнал стоматологии и краниофациальных исследований*, 2(1), 18-20.
5. Ibragimov, S., Bakhriev, I., & Islamov, S. TYPES OF FRACTURES OF THE UPPER JAW. *ТЕНДЕНЦІЇ ТА ПЕРСПЕКТИВИ РОЗВИТКУ НАУКИ І ОСВІТИ В УМОВАХ ГЛОБАЛІЗАЦІЇ*, 219.
6. Ибрагимов Ш.Р., Исламов, Ш. Э. (2023). ПАСТКИ ЖАҒ СУЯКЛАРИ ЖАРОХАТИНИНГ ТАХЛИЛИЙ КЎРСАТКИЧИ. *PEDAGOG*, 6(2), 589-592.
7. З.А. Абдурауфов, И.З. Нормухаматов, Ш.Р. Ибрагимов. Характер повреждений челюстей, *Volgamedscience*, ст. 761-763.
8. Ibragimov, S., Bakhriev, I., & Islamov, S. FORENSIC MEDICAL CHARACTERISTIC JAWS DAMAGE. *ТЕНДЕНЦІЇ ТА ПЕРСПЕКТИВИ РОЗВИТКУ НАУКИ І ОСВІТИ В УМОВАХ ГЛОБАЛІЗАЦІЇ*, 222.
9. Ибрагимов, Ш. Р. Ислом Якубович Шаматов, Шавкат Эрйигитович Исламов.(2020). *Особенности повреждений челюстей*, 30, 36-44.
10. Ibragimov, S., Bakhriev, I., Islamov, S., & Makhmatmuradova, N. QUALITY OF LIFE OF PATIENTS WITH JAW FRACTURES. *Редакционная коллегия*, 138.

11. Xikmatullaev, R. Z., Baxriev, I. I., To'liqin, J. A., & Ibragimov, S. R. (2023). BO 'LAJAK SHIFOKORNI TARBIYALASHNING G 'OYAVIY-SIYOSIY BIRLIGI. *Journal of Innovation, Creativity and Art*, 112-115.
12. Ибрагимов, Ш. Р. (2023). ЮҚОРИ ЖАҒ СУЯКЛАРИ ЖАРОХАТЛАРИНИНГ ТАҲЛИЛИЙ КЎРСАТКИЧИ. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(8), 747-752.
13. Ibragimov Shahboz Ramazonovich, Shavkat Eryigitovich Islamov, Makhmatmuradova Nargiza Negmatullaevna. "Assessment of the nature of the jaw injury" *The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research*, №4, 2022, ст. 51-55
14. Ибрагимов, Ш. Р., Исламов, Ш. Э., & Ганиева, Н. Х. (2023). НЕОГНЕСТРЕЛЬНЫЕ ПЕРЕЛОМЫ ВЕРХНЕЙ ЧЕЛЮСТИ. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 3(29), 575-580.
15. ИБРАГИМОВ, Ш. Р., & ГАНИЕВА, Н. Х. (2023). ПЕРЕЛОМЫ НИЖНЕЙ ЧЕЛЮСТИ: ПРИЧИНЫ, ХАРАКТЕРИСТИКИ, СТЕПЕНЬ ТЯЖЕСТИ. *Journal of Universal Science Research*, 1(4), 520-524.
16. Ramazanovich, I. S., & Khamrayevna, G. N. (2023). FEATURES OF DAMAGE TO UPPER JAWS. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(5), 1261-1265.
17. Ибрагимов, Ш. Р. (2023). ЧОП ЭТТИРИЛГАН ИЛМИЙ МАҚОЛАЛАРГА ИҚТИБОС КЕЛТИРИЛИШ ТАҲЛИЛИ. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 2(18), 229-233.



## ХАЛҚ ЎЙИНЛАРИНИНГ НОМЛАНИШИ – ОНОМАСТИК МУАММОСИ

Ҳамидова Нигора Уриновна

Навоий давлат кончилиқ ва технологиялар университети

**Аннотация:** Мақолада халқ ўйинларининг номланиши – ономастик муаммоси кўриб чиқилиб, уларга ечимлар топишда изланишлар олиб борилган.

**Калит сўзлар:** халқ ўйинлар, ономастика, муаммо, ечим, ҳамоҳанглик

Халқнинг ўзи каби унинг руҳияти, қадирияти, аъналари, маданиятини ва ор-номусини шакллантирадиган воситалардан бири бу – унинг миллий ўйинларидир. Ҳар бир халқ ўтмиш авлодларидан қолган маданий меросига эга бўлиб, унинг маданий бойликлари хазинасига халқ ўйинлари ҳам қиради. Сабаби, уларни халқ вакиллари ижтимоий шароитдан, ташқи ва ички муҳит талаблари билан ўзлари ўйлаб, яратишганлигига инсоният тарихий тараққиёти гувоҳдир. Зеро, халқ ўйинлари билан болаларни тарбиялаб, баркамол инсонлар сифатида улғайтириш эса аслида “...бахтли ҳаёт сари ташланган қутлуг қадам”лардан бири ҳисобланади.

Халқ ўйинлар ўзининг вужудга келиши, ривожланиши ва номланишига кўра ғайри оддий ҳодиса эмас, балки халқнинг ҳаётини образли, муайян даражада аниқ, ишонарли ва таъсирли акс эттирадиган, шу билан биргаликда жамият тараққиёти қонунларига ҳамоҳангликни ифодалайдиган фаолиятдир.

Шунинг учун ҳам халқ ўйинлари халқ ижодиётининг ўзига хос жанри бўлиб, кўп асрлик тарихга эга. Уларда жамият ривожланишининг у ёки бу босқичидаги ижтимоий воқеалар аниқ акс этади. Маълумки, меҳнат ҳамда фаолиятнинг бошқа турлари, шу жумладан миллийликни ўзида акс этирадиган халқ ўйинлари ҳам ижтимоий характерга эга. Улар кишиларнинг меҳнат маданияти пайдо бўлиши ва ривожланишининг асосига айланган тарихий босқичда вужудга келган. Бундай ўйинлар ижтимоий тараққиётнинг инсон ақли билан шакланган санъат даражасидаги маҳсулидир. Бунинг исботи қуйидагичадир: Ўзбек телефильмининг “Мафтунингман” кино фильмида Алижон исмли сартарош ўз дўконида “*Каминанинг номлари...*” номли кўшиқни куйлаб, кишиларни ўзига жалб қиладиган **рақс**ни ижро этарди.

Бугунгача ўзбек халқ ўйинларига тарих ҳамда аъналар мажмуи, спорт ўйинлари, жисмоний тарбия ва жисмоний маданият, ёш авлодни тарбиялаш омилларидан бири сингари турли нуқтаи назарлар, илмий назарий концепциялардан қаралганлигини ҳам ҳисобга олиш керак. Зеро, ўзбек халқи



Ўйинларининг номланиши, қайта номланиши, бу номланишнинг ономациологик хусусиятлари ҳалигача махсус ўрганилмаган. Чунки мана шундай ўрганишнинг долзарблиги масаласининг ечими бугунги кунда талаб этилмоқда. Шунинг учун ҳам биз уларнинг номланиши, қайта номланиши, номланишнинг меъёрийлиги ва қонуниятлиги масаласини илмий назарий ҳамда илмий амалий асосларда тадқиқ этишни режалаштирганмиз ва бу соҳада кўп зарур материалларни йиғиб, ўрганаёلمиз.

Мана шу ҳолатларни эътиборга олган ҳолда уларнинг илмий тадқиқига киришишни ўринли биламиз. Шу сабабли ҳам кўп йиллик илмий изланиш ҳамда кузатишларимиз асосида халқ миллий ўйинларини мазмун ва моҳиятига кўра қуйидагича таснифлаш мақсадга мувофиқ: 1) кунлик оддий эрмак ҳолатидаги ўйинлар; 2) жисмоний тарбия билан боғлиқ ўйинлар; 3) ақлий тарбия билан боғлиқ ўйинлар; 4) байрам кўринишидаги ўйинлар; 5) тантаналар билан боғлиқ ўйинлар; 6) маросим ҳолатидаги ўйинлар; 7) махсус рақс ҳолатидаги ўйинлар; 8) майдон томошалари кўринишидаги ўйинлар; 9) мусобақа шаклидаги ўйинлар; 10) фаслларга боғлиқ ўйинлар.

Халқ ҳаётидаги ҳар бир тарихий давр оламни бадиий ўзлаштириб, халқнинг миллий ўйинлари шакли ҳамда мазмунида бериш учун ўз ҳиссасини қўшади: санъат ижтимоий ҳаётнинг кўп қиррали ҳодисаларини ўзи мавжуд бўлган маълум бир тарихий давр нуқтаи назаридан тўлароқ ва ёрқинроқ акс эттиришга интилиб, фан, маданият, сиёсат, ахлоқ ва иқтисодиётнинг ютуқларини муайян тарзда умумлаштиради. Бундай ютуқларни ўзида ифодалашларини кўриш учун ўзбек халқ миллий ўйинларини маълум илмий асосларда махсус таснифлаврини амалга ошириш лозим бўлади. Уларни ижро этадиганларнинг ёши ва жинсига қараб, маълум маънода қуйидагича таснифланади.

## АДАБИЁТЛАР

1. Зиёвуддин Раҳим. Бахтли ҳаёт сари. Т., Шарқ, 2018. 218-222-б.
2. Исомиддинов З. «Каминанинг номлари...»// Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2012 йил 29 июнь. 26(4165)-сони. 3-б.
3. Усмонхўжаев Т.С, Хўжаев.Ф. Ҳаракатли ўйинлар. Тошкент, Ўқитувчи, 1992. 10-24-б.
4. Насриддинов Ф.Н. Ўзбек халқ миллий ўйинлари. Тошкент. 1993. 3-27-б.
5. Нигманов Б.Б, Хўжаев Ф., Раҳимкулов К.Д. Спорт ўйинлари ва уни ўқитиш методикаси. Тошкент, Илм-Зиё, 2011. 3-8-б.

6. Эназаров Т.Ж. Ном қўйиш ҳам санъат // Нутқ маданияти масалалари. Илмий тўплам. Т., 1993. 227-228-б.
7. Эназаров Т. Ж. “Номшунослик масалалари”. Т., 2010. 3-39-б.
8. Эназаров Т. Ж. Номни тўғри қўллаш – бу одоб одоблилик рамзи // География: тарих, назария, методлар, амалиёт. Т., 2010. 94-96-б.
9. Эназаров Т. Ж. ва бошқалар. “Ўзбек номшунослиги” (монография ҳамкорликда). Тошкент, Наврўз, 2015. 3-73-б.

## A Typology of Femininity in Advertising Discourse: Cultural Representations of Females in Ads

Khadicha Suyarova

MA student, Uzbekistan State World Languages University, Tashkent,  
Uzbekistan

### Abstract

This article presents a typology of femininity in advertising discourse, examining the impact of advertising on women's self-esteem and body image, the reinforcement of gender stereotypes, and ethical considerations. The linguistic features used in ads targeting women are analyzed, with examples of phrases creating unrealistic expectations for women. Studies on exposure to advertisements portraying unrealistic beauty standards are discussed, highlighting the negative impact on body image and self-esteem. The reinforcement of traditional roles and language emphasizing femininity and domesticity perpetuate harmful gender stereotypes. Advertisers have a responsibility to promote positive societal norms and values, including promoting positive body image and gender equality. Responsible advertising practices can contribute to a more equitable and just society.

**Keywords:** advertising discourse, gender stereotypes, body image, unrealistic beauty standards.

### Introduction

Advertising is a form of communication that aims to promote products and services to potential customers. It is a powerful tool that can influence consumer behavior and shape societal norms and values. Ads targeting women often use specific linguistic features that emphasize physical appearance, femininity, and domesticity. However, exposure to such ads can have negative impacts on women's self-esteem and body image, as well as reinforce gender stereotypes. Ethical considerations arise when advertisers perpetuate harmful societal norms and values through their messaging. Studies have shown that exposure to advertisements portraying unrealistic beauty standards can lead to decreased self-esteem and body dissatisfaction among women (Grabe, Ward, & Hyde, 2008). The language used in ads that emphasizes physical appearance can also contribute to an increased focus on appearance and dissatisfaction with one's own body (Bessenoff, 2006). For example, phrases such as "perfect skin" or "flawless complexion" create unrealistic expectations for women and can contribute to feelings of inadequacy.

Ads targeting women often portray traditional roles such as homemakers or caregivers, perpetuating gender stereotypes (Courtney & Lockeretz, 1971). The

language used in these ads emphasizes femininity and domesticity, reinforcing the idea that women should prioritize their roles as wives and mothers (Lambert-Pandraud & Laurent, 2010). For example, ads featuring women performing household chores such as cooking or cleaning reinforce the stereotype that women are responsible for domestic duties. Advertisers have a responsibility to promote positive societal norms and values and avoid perpetuating harmful stereotypes. Harmful societal norms and values perpetuated by ads include the idea that women should prioritize their physical appearance over other aspects of their lives (Nabi & Sullivan, 2001). This can lead to negative impacts on body image and self-esteem. Advertisers should strive to promote positive body image and gender equality through their messaging. Advertisers have a responsibility to promote positive societal norms and values and avoid perpetuating harmful stereotypes. Harmful societal norms and values perpetuated by ads include the idea that women should prioritize their physical appearance over other aspects of their lives (Nabi & Sullivan, 2001). This can lead to negative impacts on body image and self-esteem. Advertisers should strive to promote positive body image and gender equality through their messaging. These gender stereotypes perpetuated by advertising can have harmful effects on women's self-esteem and body image. Nabi and Sullivan (2001) found that ads promoting unrealistic beauty standards can lead to negative impacts on body image and self-esteem. Furthermore, Bessenoff (2006) found that social comparison can contribute to dissatisfaction with one's own body when exposed to ads portraying unrealistic beauty standards. Advertisers have a responsibility to promote positive societal norms and values and avoid perpetuating harmful stereotypes. This includes promoting positive body image and gender equality through their messaging. By doing so, advertisers can contribute to a more equitable and just society.

## **Conclusion**

Linguistic features play a significant role in ads targeting women, and exposure to unrealistic beauty standards and reinforcement of gender stereotypes can have negative impacts on women's self-esteem and body image. Advertisers have a responsibility to promote positive societal norms and values and avoid perpetuating harmful stereotypes. Responsible advertising practices can promote positive body image and gender equality, contributing to a more equitable and just society.

## **References:**

1. Bessenoff, G. R. (2006). Can the media affect us? Social comparison, self-discrepancy, and the thin ideal. *Psychology of Women Quarterly*, 30(3), 239-251.

2. Courtney, A. E., & Lockeretz, S. W. (1971). A woman's place: An analysis of the roles portrayed by women in magazine advertisements. *Journal of Marketing Research*, 8(1), 92-95.
3. Grabe, S., Ward, L. M., & Hyde, J. S. (2008). The role of the media in body image concerns among women: A meta-analysis of experimental and correlational studies. *Psychological Bulletin*, 134(3), 460-476.
4. Lambert-Pandraud, R., & Laurent, G. (2010). Parenting magazines as a source of advice for new mothers: An analysis of the content of French magazines. *Journal of Consumer Behaviour*, 9(3), 196-210.
5. Nabi, R. L., & Sullivan, J. L. (2001). Does television viewing relate to engagement in protective action against crime? *Journal of Broadcasting & Electronic Media*, 45(4), 511-528.



## PEDAGOGIKA FANLARINI MUOMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYALARI.

Buxoro davlat pedagogika instituti Dotsenti:

**Nusratov A.N.**

OXU II bosqich pedagogika va psixologiya mutaxassisligi magistranti

**Murodova D. J.**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lim tizimida pedagogik texnologiyalar qo'llanilishining ahamiyati yoritilgan. Pedagogik texnologiyaning metodologik asoslari, umumiy metodologiyaning asosiy tamoyillari tizimida yangi hodisa sifatida uni dialektik mantiq va bilish nazariyasining kategoriya va tamoyillari tizimidagi evristik imkoniyatlar darajasiga olib chiqishi ifodalangan

**Kalit so'zlar:** Pedagogik texnologiyalar, ta'lim texnologiyalar.

**Asosiy qism:** Ijtimoiy zarurat mahsuli bo'lgan texnologiya sohasi va uning takomillashib borishi qisqa vaqt oralig'ida kam jismoniy kuch sarflagan holda yuksak sifatli mahsulot ishlab chiqarish imkonini berdi. Moddiy ishlab chiqarish, xom ashyoni qayta ishlash sohalarida mahsulot ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishga nisbatan texnologik yondashuv yuzaga keldi. Moddiy ishlab chiqarish sohalarida ilg'or texnologiyalarni qo'llash shartlaridan biri malakali mutaxassislarni tayyorlash, ularning kasbiy mahoratini doimiy ravishda oshirib borishiga erishishdan iborat. Biz yashayotgan jamiyat doimo rivojlanib, o'zgarib bormoqda. Zamonaviy dunyo ta'lim maydoni doimiy ravishda yangi bilim mazmuni, yangi malakalar bilan to'ldirilib boriladi. Munosabatlarning yangi sohalar, yangi fanlarni shakllantiruvchi yangi mutaxassisliklar vujudga kelmoqda. Jahon oliy ta'lim tizimi isloh qilinmoqda. Bu ta'limning yangi shakllari va texnologiyalarini izlashga olib keldi. Oliy ta'limni jahon makonining talablari va standartlari bilan uyg'unlashtirish, uni rivojlantirish muayyan tamoyillar asosida amalga oshiriladi. Bu, eng avvalo, ta'lim va fanga innovatsion yutuqlarni ustuvor tarzda joriy etishdir. Ma'lumki, aynan jamiyat taraqqiyotining innovatsion yo'li yangicha fikrlaydigan va mehnat qiladigan insonlar avlodini shakllantirishni ta'minlay oladi. Natijada, asosiy e'tibor shaxsning rivojlanishiga, madaniy va kommunikativ tayyorgarligiga, bilimlarni mustaqil ravishda egallash va rivojlantirishga, axborot va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratiladi. Shuni hisobga olib, maqolaning asosiy maqsadi ta'lim tizimidagi innovatsion pedagogik texnologiyalarning asosiy jihatlarini o'rganishdan iborat.

**Xulosa:** edagogik texnologiya mohiyatining umumiy jihatlari, shakl va mazmuni, qarama-qarshiliklar tizimi, miqdoriy va sifat o'zgarishlari dialektikasi, qurilishi, amal qilishi va rivojlanishining umumiy qonun va qonuniyatlari texnologiyaning umumfalsafiy konsepsiyasi doirasida muvaffaqiyatli ravishda ko'rib chiqilishi mumkin. Uning harakati mantiqiy va moddiy ishlab chiqarish sohasidagi yuqorida ko'rib chiqilgan qonuniyatlar, uning dialektik qaramaqarshi jihati bo'lgan ma'naviy ishlab chiqarish, shuningdek, ta'lim sohasi qonuniyatlarini ko'chirish jarayonini aks ettirishdan iborat.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Камалов И.Р., Камалова Д.И. «Астрономия фанини ўқитишда инновацион педагогик технологияларни қўллаш» электрон ўқув қўлланмаси учун ЭХМ дастур. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги хузуридаги Интеллектуал мулк агентлиги. №DGU 06406. 15.05.2019
2. ТА'ЛИМ ТИЗИМИДА ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАР ҚО'ЛЛАНИЛИШИНИНГ АНАМИЯТИ – тема научной статьи по наукам об образовании читайте бесплатно текст научно-исследовательской работы в электронной библиотеке КиберЛенинка ([cyberleninka.ru](http://cyberleninka.ru))
3. (PDF) Innovative Pedagogical Technologies in Education System ([researchgate.net](http://researchgate.net))

## O'QITUVCHILAR NUTQI MADANIYATI

Xongeldiyeva Sevara Shuxrat Qizi

O'zbek filologiyasi fakulteti

Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili ta'limi yo'nalishi

2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Umurqulov Bekpo'lat

**Annotatsiya:** Bu maqolada sohalarda nutq madaniyatining muhimligi, o'qituvchining o'ziga xos nutqi, dunyodagi har bir kasbni egallashda nutqning muhim vosita ekanligi borasidagi fikr-mulohazalar bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** pedagogik madaniyat, sohalarda nutq madaniyati, o'qituvchilar nutqi, fonatsiya jarayoni, ta'lim-tarbiya, ma'naviyat-ma'rifat, estetik ta'sir.

Insoning ma'naviy kamolotga erishuvida, jamiyatning madaniy-ma'rifiy rivojida ona tilining o'рни favqulotda muhimdir. Til milliy ma'naviyat, ma'rifat va madaniyatning eng xolis va xira tortmas ko'zgidir. Hadisi shariflarda "Kishining zebu ziynati go'zalligi uning tilidadir" deydilar. Shoh va shoir bobomiz Zahiriddin Muhammad Bobur nutqining soda, ravon va aniq bo'lishiga nutqiy madaniyatning yuqori bo'lishiga alohida e'tibor bergan.

Nutq madaniyati jamiyat madaniy-ma'rifiy taraqqiyotining millat ma'naviy kamolotining muhim belgisidir. Haqiqiy ma'nodagi madaniy nutq shaxs umummadaniy saviyasini favqulodda muhim unsurlaridan biridir. Shuning uchun ham mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi deb, e'tirof etilgan. Bugungi kunda nutq madaniyati masalalari o'qituvchining nutqiy madaniyat mahorati farzandlarimizning madaniy nutq ko'nikmalari va malakalarini oshirish, ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida madaniy nutq muammolarini yetarli darajada nazarda tutish har qachongidan dolzarbdir[1,61].Shuningdek, dunyoda turli-tuman kasblar, bir-biridan turfa hunarlar bor. Ularning har birida o'ziga xos ish qurollaridan foydalaniladi. Masalan, dehqonlarning asosiy ish quroli ketmon. Duradgorlarniki –tesha, arra,(arra,randa), jarrohniki – tig', tikuvchiniki – igna. O'qituvchi va pedagoglarning asosiy ish qurollaridan biri bu uning nutqidir. Avvalo har bir inson kim bo'lishi va qaysi sohaning egasi ekanligidan qat'iy nazar chiroyli va ma'noli so'zlash qobiliyatiga ega bo'lishi lozim[3,2].

Ma'lumki, o'qituvchilik o'ta mas'uliyatli va sharafli kasb hisoblanadi. Ta'lim muassasalarida o'qituvchining samaradorligi avvalo uning bilimdonligi, tayyorgarligi, o'z faniga qiziqishi, izlanuvchanligi, yuksak pedagogik mahorati va albatta nutqiy qobiliyatiga bog'liqdir. Barkamol hamda har taraflama yetuk insonni tarbiya qilish uchun o'qituvchi nafaqat puxta bilimli balki o'z fikrini chiroyli, ravon, nutq madaniyati

qonuniyatlarini chuqur egallagan holda ifoda qila olishi zarur. Nutq madaniyati barcha fan o'qituvchilari uchun birdek ahamiyatlidir. O'qituvchining nutqiy madaniyati darslarni tashkil etish, yangi mavzuni tushuntirish va mustahkamlash, so'rash va javob berish, mavzu bo'yicha muammoli vaziyatlarni yaratish va munozaralar yordamida hal etsih kabi ta'lim jarayonining barcha jabhalarida namoyon bo'ladi. O'qituvchi bevosita nutqi yordamida muayyan mavzun tushuntiradi, fikrini mantiqiy izchillik asosida bayon etadi, ya'ni dalillarni asoslaydi, taqqoslaydi, ular o'rtasidagi aloqani ma'lum qiladi, umumlashtiradi va xulosalaydi. Shuning uchun o'qituvchi nutqiy jihatdan quyidagi talablarni o'z oldiga qo'yishi maqsadga muvofiqdir:

- o'quvchilar diqqatini to'play olish;
- nutqning ta'sirchan va ifodaliligiga ahamiyat qaratish;
- fikrni ixcham, sodda, ta'sirli qilib ifodalash;
- mavzuga mos dalil va isbotlarni aniq, lo'nda qilib keltirish;
- aytilgan fikrni o'rinsiz takrorlamaslik;
- fikrni bayon etish jarayonida hayajonlanmaslik, o'zini og'ir tutish;
- o'quvchilar nutqini shakllantiish;

O'qituvchilar faoliyatida nutq juda muhim vazifalarni bajaradi. O'qituvchilarning so'zlari ta'sirida bolalarda muayyan ruhiy jarayon va holatlar vujudga keladi, insoniy xislatlar shakllanadi. Albatta, o'qituvchi nutq madaniyati haqida gap yuritilganda muallimning faqatgina gapirishi emas, shuningdek, yozma fikr bayon qilishi, tinglab tushunishi va o'qishi ham e'tiborga olinadi. O'qituvchining nafaqat dars jarayonida, balki darslardan tashqari o'tkaziladigan tarbiyaviy mashg'ulotlarda, tadbirlarda, ota-onalar yig'ilishlarida, aholi va mehnat jamoalari huzurida nutqning go'zalligi bilan ajralib turishi kerak. Chunki o'qituvchining nutqi, o'quvchilar uchun namuna vazifasini o'tyadi desak mubolag'a bo'lmaydi.

O'qituvchi nutqida kuzatiladigan kamchiliklardan biri fonatsiya jarayonida, ya'ni nutq hosil bo'lish paytida nafas olishdagi tartibsizliklar bilan bog'liq. Fonatsiya jarayonida nafas olish va nafas chiqarish fazalari shunday yo'lga qo'yilishi kerakki, nafas olish zo'riqishsiz, bir qadar jadalroq, nafas chiqarish esa tekis, bir me'yorda va davomliroq kechishi lozim. Nafas chiqarish qanchalik davomli, uzun bo'lsa, shunchalik yaxshi. Zoatn, tovush, nutq ayni shu nafas chiqarish jarayonida hosil bo'ladi.

Fonatsiyada nafas olish va nafas chiqarish fazalarining ketma-ketligi, almashinish tartibini to'g'ri tasavur etmoq kerak. Bu fazalar bilan nutqning hajmiy va, albatta, mazmuniy estetik qurulishi o'rtasidagi mutanosiblikni to'g'ri belgilamaslik oqibatida nafasning yetmay qolishi, shunga ko'ra bir nafas bilan yaxlit aytilishi lozim bo'lgan nutq parchasining bo'linib ketishi, mantiqiy mazmunni buzadigan noo'rin

pauzaning paydo bo'lishi kabi nuqsonlar o'rtaga chiqadi[2,46]. Nutq texnikasini egallashda umumiy tarzda bo'lsa-da, fonetik bilimlardan boxabarlik zarur. Ayrim o'qituvchilar ko'pincha dars jarayonida boshqa joylardagiga qaraganda anchayin baland ovozda gapiradilar. Bu yo'l bilan go'yoki sinfdagi shovqinni "bosib" qo'yganday bo'ladilar. Ammo bu usulning ta'siri baribir u qadar katta bo'lmaydi, faqat o'qituvchining ovoz apparati keraksiz zo'riqadi, o'zi tez charchaydi. Yana ba'zi o'qituvchilar borki, ular darsda deyarli past ovozda so'zlaydilar. Bunda ham o'qituvchining o'zi qiynaladi, ammo sezilarli samaraga erishmaydi, faqat bunday ovoz bo'g'iq, tussiz eshitiladi va o'qituvchining diqqatini ushlab turmaydi. Tajribali o'qituvchi faqat baland yoki faqat past ovozda dars o'tmaydi.

Umuman, o'qituvchi o'zining nutq texnikasini takomillashtirish borasida doimiy qayg'urishi, fonetika, fonologiyaga oid bilimlaridan umumiy tarzda

bo'lsa-da, xabardor bo'lishi, kerak bo'lganda, o'z nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etishga yordam beradigan mashqlardan mutassil foydalanib borishi maqsadga muvofiq. Chunki tugal nutq texnikasisiz o'qituvchining, har bir nutq tuzuvchining og'zaki nutqi madaniyatini also raso deb bo'lmaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Azimova Madina.O'qituvchi nutqi madaniyati. Maqola; Central asian Research Journal For Interdisciplinary Studies, 2022.
2. Hamidov Abdumalik. O'qituvchi nutqi madaniyati. Termiz, 2013.
3. Dilfuza Paraxadova.O'qituvchi nutqi mahoarti.Maqola.



SAID AHMADNING "KELINLAR QO'ZG'OLONI" ASARIDAGI KELINLAR  
NUTQINING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI

Xongeldiyeva Sevara Shuxrat qizi

O'zbek filologiyasi fakulteti Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili ta'limi  
yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Umurqulov Bekpo'lat

**Annotatsiya:** Bu maqolada Said Ahmadning "Kelinlar qo'zg'oloni" asaridagi kelinlar obrazi o'rtasidagi o'zaro nutq munosabati va bu munosabatda qo'llaniladigan so'zlarning ko'chma va o'z ma'nolari borasidagi fikr-mulohazalar bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** Kelinlar nutqi, an'anaga aylangan so'zlar, o'zbek xalq maqollarining nutqda ishlatilishi, leksik-semantik tahlil.

Jamiyatda kelinlar nutqi ham alohida ahamiyatga ega. Kelinlar nutqining o'ziga xosligi ko'proq ularning kamtarligi va muloyimligida bilinadi. Ayniqsa, qaynona va kelin munosabatida kelinlarning nutqida ko'proq muloyim so'zlar ishlatiladi. Masalan, "Hozir oyijon", "Xo'p bo'ladi oyijon", "Xo'p, mana oyijon", "Xo'p bo'ladi" kabi. Bunday so'zlar ko'proq turkiy xalqlarda, ayniqsa o'zbek kelinlari nutqida o'ziga xos hurmat, an'ana sifatida keng qo'llaniladi. Buni Said Ahmadning "Kelinlar qo'zg'oloni" komediyasida ham yaqqol ko'rishimiz mumkin. "Kelinlar qo'zg'oloni" sovet davrida olingan eng yaxshi kinokomediyalardan biri hisoblanadi. "Kelinlar qo'zg'oloni" komediyasida qaynona va kelinlar nutqiga alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, yozuvchi har bir kelin nutqini o'ziga xos tarzda ko'rsatgan.

Asarda kelinlarning nutqida qaynonaga nisbatan o'zaro hurmat mavjudligini ko'rish mumkin. Masalan:

-Hozir, hozir, oyijon[1,2]! (Nigora kelin nutqidan);

-Xo'p bo'ladi[1,4]! (Muhayyo kelin nutqidan);

-Meni kechiring oyijon, yoshlik qilibman[1,7]. (Nigora kelin nutqidan);

-Xo'p bo'ladi oyijon, ko'zim durbin, qulog'im mikrafon[1,10]. (Sotti kelin nutqidan);

-Mana oyijon[1,12]. (Lutfi kelin nutqidan);

-Xo'p bo'ladi, oyijon[1,13]. (Bo'ston kelin nutqidan)

**Bo'ston** kelin obrazining har bir nutqida esa "shu desangiz..." jumlasini ishlatilganini ko'rishimiz mumkin:

-Shu desangiz...[1,2];

-Patxalim o'lgur, shu desangiz...[1,3]

-Voy o'lay. Shu desangiz...[1,4];

-Mana oyijon, shu desangiz...[1,6];

- Shu desangiz, hech balo bo'lmaydi[1,6];
- Mana, shu desangiz oyijon[1,13];
- Ammo bu pulga, shu desangiz... bolamning o'ziga velosiped olib bersam degandim[1,13];
- Shu desangiz... iltimos, o'shandan bittasini olib bering[1,13];
- Shu desangiz... xo'p bo'ladi, xo'p...[1,13]

Yozuvchi asarda Bo'ston kelin nutqida bu jumlaning ishlatish orqali, bu obraz nutqini boshqalardan ajralib turishini ta'minlagan. Asardagi har qaysi kelin nutqi o'ziga xos tarzda ifodalangan. **Bashorat** kelin obrazi nutqi asarda **o'zbek xalqi maqollari** bilan ifodalanishi orqali boshqa obrazlar nutqidan farq qiladi:

- Suykalmay joning chiqsin, Ishonmagin do'stingga, somon tiqar po'stingga[1,3];
- Bir tovuqqqa ham don kerak, ham suv kerak, deganlaridek...[1,14];
- Maqol so'z ko'rki, o'zingizdan qolar gap yo'q[1,14];
- Do'st boshga, dushman oyoqqa qaraydi deganlaridek...[1,14]
- Eskisini yamasang esing ketadi, degandek...[1,14];
- “Qudachilik – ming yilchilik”[1,14];
- “Yuz aytganni zahri yo'q”, “Olarda kirar jonim, berarda chiqar jonim”, qo'ying oyi[1,14];
- “Ichingdan chiqqan baloga, qayga boray davoga” – yaxshimanmi, yomonmanmi – oyimni farzandiman[1,15];
- “Qo'ng'iz bolasini oppog'im deyar ekan, tpratikan yumshog'im deyar ekan”, “Har kimniki o'ziga, oy ko'rinar ko'ziga”[1,15];
- “Menam edim seningdek, sen ham bo'larsan meningdek”, kulmang o'rgilay kulmang[1,20];
- “Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqar”[1,25].

Asarda bunday maqollarning kelin obrazi nutqi orqali kitobxonga yetkazilishi bu ajoyib. Chunki o'zbek xalq maqollari, o'zbek xalq og'zaki ijodi sirasiga kiradi va bu maqollarda xalqning milliy madaniyati, ma'naviyati, yashash tarzi, qadriyat va an'analari mujassam. Maqollar nutqning ta'sirchanligi va ekspressivligini ta'minlaydi, so'zlovchi nutqida ayrim fikrlarga dalil, ishonch va munosabatni ifodalaydi. Va bu yozuvchining asarni badiiyligini, jozibasini oshirish bilan birgalikda maqollardan keng foydalanganlik mahoratini ko'rsatib beradi.

Shuningdek, asarda tibbiyot sohasiga ham o'zgina burulish yasalgan. Qisman asardagi **Mehri** kelin obrazi nutqida **tibbiyotga doir** jummalarni ko'p uchratishimiz mumkin:

-Og'zidan so'lagi oqyapti. Qazi yedirib turish kerak. Jenshen degan doridan olib kelib beraman. Bo'lmasa yiqilib qoladi[1,4];

-Bitta yo'li A, B, V, G, D vitaminlaridan yeb turish kerak, bo'lmasa holdan toyib qoladi[1,4];

-O'zlari nimjonroq edilar-da. Koloriyali ovqatni kam yeydilar. Yo jenshen...[1,6]

Shunday qilib, asardagi har bir kelin obrazi nutqi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Kelinlar nutqidagi aynan mana shu o'ziga xoslilar asarning qiziqarliligi, badiiyligi, jozibadorligi, takrorlanmasligini va umrboqiylini ta'minlagan desak, mubolag'a bo'lmaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Said Ahmad "Kelinlar qo'zg'oloni" – [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi

## Surdotarjimon innovatsion platformasi

Islomova E'zoza Yorqin qizi

Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi

**Annotatsiya:** Ma'lumki, eshitish qobiliyati past odamlar uchun dunyo bilan aloqa qilish juda qiyin. Eshitish va gapirishda nuqsoni bo'lgan insonlar uchun qo'l harakatlari imo-ishoralar tili sanaladi. Ushbu loyiha nafaqat qo'l imo-ishoralarini avtomatik ravishda tanibgina qolmay, balki imkoniyati cheklangan insonlarga oddiy odamlar bilan osongina muloqot qilish uchun imo-ishoralar tilini matn va nutq ko'rinishida taqdim etadi. Kompyuterga ulangan kamera qo'l tasvirlarini tanib oladi hamda kontur xususiyatini ajratib olish odamning qo'l imo-ishoralarini tanib olish uchun ishlatiladi. Tanib olingan ishoralar asosida matn yoki nutq ijro etiladi.

**Kalit so'zlar:** surdotarjimon, imo-ishora, qo'l harakatlari, tasvirga ishlov berish, eshitish va gapirish qobiliyatida nuqsoni bor insonlar.

Mehr-muruvvatli va bag'rikeng xalqimiz azal-azaldan yordamga muhtoj, imkoniyati cheklangan insonlarga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatishni jamiyatda tinchlik, do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladigan eng muhim qadriyatardan biri sifatida e'zozlab keladi. Ana shunday ezgu an'analarimizni bugungi zamon talablari asosida rivojlantirish maqsadida so'nggi yillarda mamlakatimizda imkoniyati cheklangan fuqarolarimizni qo'llab-quvvatlash, ular uchun zarur barcha sharoitlarni yaratish borasidagi davlat siyosati yangi bosqichga ko'tarilmoqda<sup>1</sup>

Bugungi kunda kompyuter innovatsiyasi rivojlanishda davom etar ekan, odamlar va mashinalar o'rtasidagi xarakterli yozishmalarga bo'lgan talab qo'shimcha ravishda ortadi. Hozirda biz foydalanayotgan uyali aloqa vositalarimiz sensorli ekranga ega bo'lishiga qaramay, ish maydoni ramkalarida amalda qo'llash yomon emas. Sichqoncha gadjetlarni boshqarish uchun juda qimmatli, biroq uni jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar va ulanish uchun sichqonchadan foydalanishni bilmagan shaxslar uchun bir qancha noqulayliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Biz taqdim etayotgan surdotarjimon loyihasi veb-kameradan foydalanishni o'z ichiga oladi, bu orqali foydalanuvchi tomonidan berilgan qo'l imo-ishoralari yozib olinadi va mos ravishda aniqlanadi.

Surdotarjimon – fransuzcha sourd so'zidan olingan bo'lib, imo-ishora tilini biladigan va istalgan milliy tildan imo-ishora tiliga yoki aksincha tarjima qiladigan shaxs ma'nosiga ega. Ammo taqdim etilayotgan loyihada tarjimonlik vazifasini inson emas, balki kompyuter (dastur) bajaradi.

<sup>1</sup> Sh. Mirziyoyevning 2021-yil 3-dekabrda Xalqaro nogironlar kuni munosabati bilan so'zlagan nutqidan.

Ilgari qo'l ishorasini matnga aylantirish uchun ko'plab usullar qo'llanilgan. Biroq ular o'zlarining funksiyalari jihatidan cheklangan edi. Ko'pgina texnikalar sensorli qo'lqoplarni talab qildi, bu nafaqat dasturni murakkablashtirdi, balki qimmatroq qildi. Boshqa versiyada tizim hech qanday shovqinsiz ma'lum bir fon bilan cheklangan edi. Og'ir grafik protsessorlarga bog'liq bo'lgan ba'zi loyihalar oddiy odamlar uchun tizimdan foydalanishni qiyinlashtirdi. Garchi qo'l imo-ishoralarini matnga aylantirishning turli usullari bo'lsa-da, lekin ozchilik dastular cheklangan xususiyati bilan imo-ishorani matn va nutqqa aylantirishga qaratilgan.

Taqdim etilayotgan loyiha bosqichlari quyidagicha:

- Dastavval, kamera qo'l konturlari va muskullari harakatini mos ravishda tanib oladi.
- Tanib olingan imora-ishoralar tanlangan tildagi matnga aylantiriladi, imo-ishoralar tili nutq, ya'ni ovozli tarzda uzatiladi.
- Bosqich so'nggida esa ushbu dastur mobile yoki desktop ko'rinishida taqdim etiladi.

Loyihaning afzalliklari

Loyiha bir qancha afzalliklarga ega.

Xususan:

- davlat xizmatlari organlari;
- sog'liqni saqlash sohasi;
- ta'lim tizmi

va boshqa shu kabi ijtimoiy sohalarda imkoniyati cheklangan insonlarning muttasil aralashuvini ta'minlash loyihaning yetakchi va asosiy yutug'i sanaladi.

Ushbu ilova oddiy odamlar va eshitish va gapirishda nuqsoni bo'lgan insonlar o'rtasidagi tafovutni bartaraf etishga yordam beradi. Bu tizim imo-ishora tili belgilarini, shu jumladan, so'zlar va jumalarni aniqlashda yuqori aniqlikni ko'rsatadi. Shuningdek, u konvertatsiya qilish imkoniyatiga ega bo'lib, matn mazmunini nutqqa ham kiritadi.

Loyihaning kelajak doirasi

Tasvirga ishlov berish. Kelgusi ishda taklif qilingan tizim rasmga ishlov berish qismini yaxshilashi mumkin. Natijada esa tizim ikkala yo'nalishda ham aloqa qila oladi, ya'ni umumiy tilni imo-ishora yoki odatiy tilga tarjima qila oladi.

Orqa fon shovqinini kamaytirish. Tegishli tadqiqotlar va turli tajribalarni o'tkazgandan so'ng yaxshiroq aniqlash bosqichida fon shovqinini kamaytirish uchun yondashuvlar ishlab chiqilishi mumkin.



Imo-ishoraning aniqlanish vaqtini qisqartirish. Foydalanuvchi ketma-ket imo-ishoralarni aniqlash orasidagi kutish vaqtini qisqartirish mumkin, bu esa foydalanuvchi interfeysini yanada oson qiladi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, ushbu loyiha imloniyati cheklangan insonlarning jamiyatdagi to'liq ishtirokini ta'minlaydi, imo-ishoralarga asosiy muloqot vositasi sifatida ishonadiganlar va hayoti davomida shunga tayanadiganlar uchun jamiyatning boshqa a'zolari bilan uzluksiz aloqani ta'minlab beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Yojana Gajare, prof.Vina M.Lomte va boshqalar. Hand gesture recognition system for translating sign language into text end speech. International journal of creative research thoughts, 2022.
2. K. Manikandan va boshqalar. Hand gesture detection end conversion to speech and text. Maqola
3. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Surdo\\_tarjimon](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Surdo_tarjimon)

## THE IMPACT OF CRITICAL READING SKILLS TO POSTGRADUATE STUDENTS' ACADEMIC SUCCESS

Kholkuziev Ashurali

Independent researcher, Uzbekistan State University Of World Languages, Kichik Khalka Yuli Street, 21a, Tashkent, Uzbekistan

The increasing demand for postgraduate education, which is one of the innovative essence of any sphere of advancement, has increased so far, and the ability of doing research is one of the requirements of it, namely critical reading skills. The purpose of the following literature review is to evaluate the definition of critical reading by various researchers, critical reading skills explicitly, its impact on postgraduates' academic success, the challenges of carried out research and their results, controversial ideas of researchers and suggestions to improve critical reading for graduate students. Assessing postgraduate students' understanding of their critical reading skills is very crucial because obtaining a considerable amount of data is needed for the accomplishment of research. According to Arslan (2022) various kinds of reading are existed on the basis of the aim and requirement of the person from the reading methodology. There are various kinds of reading ; reading loudly, quietly, skimming, assuming and critical reading. Among them the critical reading is the one, which in academic achievement possesses a vital role.

The term of critical reading will be defined before giving explanation and how it refers to the academic concept of postgraduate students. The term critical reading is making logical analysis, evaluation, synthesizing, argumentum in reading of what is read. While surveying the topic, it was observed that critical reading was studied by a number of researchers. According to Cervetti, Pardales, and Damico (2001) critical reading is the method of assessing the integrity information and of establishing a judgment about it. Wallace (2003) claims that critical reading can be approached by analyzing text rather than general reading (p. 44), he also points out that the aim of the critical reading is to acquire an ample comprehension of the real content of the text, which is irrefutable part of the research point. He means that in general reading it is not important questioning, but in critical reading it is. Critical reading contrasts from reading skeptic, so according to Wheeler (2007), a critical reader attempts to synthesize ideas rather than refute. By this he means that a critical reader analyses and evaluates essential details. Milan (1995) noted that being critical requires detailed examination, pragmatism and rational capacities (p. 218), the research cites that analytical syntheses of the context are required in critical reading. Also, in accordance with Freire

(2005)critical reading should indeed be approached as a method of equally like understanding the word and reciting the world (p. 31). By this statement he meant that the reader of the text is actually the second author. Complying with this idea Salvatori and Donahue (2005) have claimed that the main positive issue of being co-authors gives the responsibility for the interpreted meaning of the text details.

The number of research explanations for the effect of critical reading skills to postgraduates are provided. In accordance with Wallase and Wray (2021) critical reading skills are accepted as the main component at the postgraduate level. Khalil (2019) mentioned that critical reading is important for graduate level students since it supports them with available evidences, necessary data for their survey paper. Kim(2020) argues that skilled readers frequently pass exams successfully compared to unskilled students, because critical readers adopt a variety of effective reading techniques. Based on the researchers **Ferdous** and Mahmuda (2022) **the strategies of critical reading skills are:** 1) Evaluating; 2) Interpreting 3) Replying; 4)Synthesizing; 5)Examining 5) Re-reading. However, according to Arıçı (2008) critical reading is as a “reading tool“ and includes separating parts, comprising the idea and using effective techniques of the context, identifying the goal and utilizing them towards the topic, locate primary ideas of text, key features, statements, paragraphs; create cause-effect connection between paragraphs; search and discover the correlation with each other ; criticize non-hidden ideas ; explore narrated techniques by the writer.

Critical reading is an important ability, which ought to be taught elaborately during the academic years. Enhancing critical reading abilities is essential for success in the academic world and critical reading levels proved to have considerable positive effect on other academic skills like listening and watching skills. Numerous books and scholar articles were written about the importance of critical reading in the education process. (Wallace and Wray (2011), Mikelson (2018)) The primary purpose of critical reading in education is its powerful impact on students’ critical thinking. In this regard, it is stated that the primary aim of modern various educational system is to improve the critical reading skills in academic performance and methods, namely postgraduate levels (Shamida, Siddhu and Nawi(2021). The inadequate language and research abilities of postgraduate students have been identified among the many other contributing factors in this regard, the study on postgraduate students critical reading in the base of a Reading test paper was carried out with 50 students from a non-governmental Malaysian university and it revealed that students were sure about their own ability rather than critical reading skills, results demonstrated that creative strategies are needed in order to complete graduation on time. Postgraduate students

are required to have a solid working understanding of the topic, be able to comprehend academic context, and be able to write their theses with a quality that is acceptable. Wang (2009) discovered that in order to comprehend the essence of a text, a learner needs proficient reading abilities to produce implicit primary concepts.

Based on the book of Wallace and Wray (2011) point out that ability to read the text critically is determining the level of the justification of the authors in the text which they provide, they state also that enabling critical reading skills help academic learners to sort relevant information by evaluating its argument containing conclusion from a wide range of literature which is accessible in advanced internet resources. Kurland (2000) asserted that it is not just attentive reading, but a critical reader should assess and examine the text's supporting evidence. He added that a critical reader should be aware of what to look for and how to process what they discover from the text. The researchers Edman(2008); Ennis(2018); Hervás & Miralles( 2006); Huijie( 2010); Wade (2008) cited the close association of the capacity to read analytically, academic accomplishment, and the demand for thinking critically. Baba & Affendi ( 2020) claimed that reading is a necessary ability for graduate studies because it enables students to comprehend their research topics on a deeper level. Wallace and Wray (2021) stated that one of the main principles of postgraduate studies is the development of critical reading skills. Khalil (2019) believed that critical reading is crucial for postgraduates so it enables them to develop persuasive arguments or find relevant data for their research projects. If students are not competent in questioning the arguments, they get challenges doing their research work. Students that are excellent in critical reading skills will also be better able to communicate their opinions and points of view. Moreover, students should devour a great deal of academic articles to sort the essential information on their thesis, reading comprehension improves students' academic performance as well as non-cognitive academic outcomes like agency, persistence, and delight, according to Garcia-Navarrete, Sax & Levine (2012); Guthrie & Klauda (2014); McLaughlin & Rasinski (2015). Nevertheless, Wallas (2003) mentioned that, albeit mentioning the significance of critical reading, its seriousness has not been taken into consideration. Notwithstanding this approach, study shows that several higher education students have difficulty with reading materials of a complex nature efficiently. The effectiveness of the instructional structure examined by questioning students according to Douglas ( 2016), Holschuh & Paulson ( 2013), Manarin ( 2016) and Allen ( 2011) claimed that techniques such as scanning, defining the terms based on context, underlining and synthesizing main ideas used by pedagogies explain as a means of accomplishing goals restricting learners to get experience from the text ( p.



99). Consequently, students believe that it is because of reading deficiency not knowing the given technique incompetency, stated Salvatori & Donahue( 2005); Smith( 2012). According to Hudson (2007) the capability to read critically and interpret the data are vital for high school students due to the fact that they can get detailed information by posing a question, students who are introduced to critical reading techniques properly will be able to recognize and synthesize main ideas or compare texts critically and achieve better results.

There are a number of reasons why critical reading impacts on academic purposes have been studied in the present literature review. Firstly, many students misunderstand the difficulties of completing postgraduate courses, according to Dreyer and Nel (2003). With having inefficient critical reading skills their academic performance seems challenging for them. Another point of view is as Khodary and Abdallah's (2014) research describes, the students face inadequacy in concluding, determining cause and consequences connections, analyzing justifications while studying. Low academic literacy and research capabilities in accordance with Sidhu, Kaur, Fook, and Yunus (2013) distracting students from academic success. Çam (2006) based on his founding in Turkish classes (the research was done with 800 (280 female-420 male)students of Sivas city center in the autumn term of 2021-2022) stated that critical thinking and critical reading skills grow educational excellence.

In this point of view some suggestions can be listed in order to improve critical reading.

Since critical reading can be taught and trained, it is essential to teach critical reading skills to students at every level of the education process. Background knowledge of critical reading from schools can be one of the opportunities. Critical reading skills can be improved by starting reading habits especially at schools. Critical reading techniques and materials should be prepared and implemented in primary, secondary and high schools, in accordance with Ozensoy (2020). Innovative approach is suggested in teaching critical reading skills. Students should improve critical thinking abilities, as it is interrelated to analytical reading skills. Fleming and Weber (1980) highlighted the importance of creating the instructional sources, tactics, and strategies to cultivate critical reading abilities of students. Another contributing issue can be turning inefficient teaching of critical reading strategies into effective. Five critical important critical questions are listed by Weber (year) in a list of recommendations such as ; - What is the reason I am reading this? - What is the purpose of authoring this? - What is the connection between my focused topic and authors' provided data? How reliable are authors statements? - What kind of conclusion can I get from it? Carr (1988) cited that reading magazines, papers, television and radios in the class are important in



order to improve critical reading skills. Manarin (2015) noted that the reader should work on the content of the text by re-reading compared to develop a definite perception.

**In conclusion**, having evaluated the study of the relationship between critical reading and academic attainment, it can be concluded that critical reading is one of the crucial skills for accomplishing academic level. Critical reading skills should be accepted as a main skill for academics and needs to be improved by working collaboratively with teachers and studied research work demonstrates the importance of developing critical reading skills for postgraduate students. Students need effective strategies, techniques, materials of critical reading from their instructors towards the aim of improvement. The advantages of improving critical reading skills for graduate students are: 1) students can easily choose relevant articles by distinguishing from reliable and unreliable sources ; 2) they can enhance reading and writing skills by highly suggested strategies. 3) Students should improve reading habits in order to move to critical reading skills which lead to successful accomplishment of their chosen researches.

## REFERENCES

Arslan, A. (2022). Investigation of Secondary School Students' Critical Reading Skills and Listening/Watching Usage Strategies by Structural Equation Model. *International Journal of Progressive Education*, 18(3), 309-325.

Anuar, N., & Sidhu, G. K. (2017). Critical reading skills: A survey of postgraduate students' perspective of critical reading. *Pertanika Journals Social Sciences & Humanities*, 25, 163-172.

Al Roomy, M. A. (2022). Investigating the Effects of Critical Reading Skills on Students' Reading Comprehension. *Arab World English Journal*, 13(1), 366-381.

Erkek, G. (2022). Activity Suggestions to Develop Critical Reading and Writing Skills. *International Journal of Education and Literacy Studies*, 10(2), 65-70.

Ferdous, Z., & Alam, M. Exploring the Meaning of Critical Reading. *Strength for Today and Bright Hope for Tomorrow Volume 22: 7 July 2022 ISSN 1930-2940*, 248.

Mickelson, N. (2018). Cultivating critical reading: Using creative assignments to promote agency, persistence, and enjoyment.

Ozensoy, A. U. (2021). The Effect of Critical Reading Skill on Academic Success in Social Studies. *Eurasian Journal of Educational Research*, 93, 319-337.

Shamida, A., Sidhu, G. K., & Nawi, S. M. (2021). Postgraduate students' perceived and actual performance in critical reading skills. *Asian Journal of University Education*, 17(3), 76-84.

Wallace, M., & Wray, A. (2021). Critical reading and writing for postgraduates.



## BINO VA KONSTRUKSIYALAR SIFATINI NAZORAT QILISH

**Toshboyeva Hurshida Farhod qizi**

Termiz muhandislik va texnologiya institute Arxitektura(turlari bo'yicha) 2-kurs talabasi

**Anotatsiya:** Qurilish konstruksiyalarining sifati ularning ishlatilishida qo'yiladigan talablarga muvofiqligi, zaruriy ishonchlilik darajasi, texnik shartlarda va buyumlarning ish chizmalarida ko'rsatilgan talablariga muvofiq kelishi bilan tavsiflanadi.

**Kalit so'zlar:** Texnologik nazorat, betonning mustahkamligi, yengil va g'ovak beton, mexanik sinash, betonning mustahkamligi, qurilish konstruksiyasi, yuklash usuli, integral xarakteristikasi, GOST 882985, matematik modellashtirish, KROOUS.

Qurilish konstruksiyalarining sifati ularning ishlatilishida qo'yiladigan talablarga muvofiqligi, zaruriy ishonchlilik darajasi, texnik shartlarda va buyumlarning ish chizmalarida ko'rsatilgan talablariga muvofiq kelishi bilan tavsiflanadi. Qurilish konstruksiyalarining sifati oldindan boshlang'ich materiallarning sifatiga, buyumlar tayyorlashning barcha bosqichlarida texnologik talablariga qat'iy rioya qilinishiga bog'liq bo'ladi. Sifatni nazorat qilish dastlabki nazorat, texnologik nazorat va qabul qilish nazoratiga bo'linadi. Dastlabki nazorat boshlang'ich materiallarning (qum, chaqiqtoş, sement, po'lat va boshqalar.) me'yoriy hujjatlarga va boshqa talablarga muvofiqligini tekshirish uchun amalga oshiriladi. Texnologik nazoratdan maqsad: buyumlar tayyorlash jarayonining rejimlariga va boshqa ko'rsatkichlariga rioya qilinishini tekshirishdir. Masalan, beton qorishmani tayyorlash, uni joylash va zichlashtirish sifatini tekshirish yoki po'lat qoliplarining o'lchamlarini va yig'ish sifatini, buyumlarda armaturalarning loyihada ko'rsatilganidek joylashganligini, po'lat konstruksiyalarda payvand choklarining sifatini va b.sh tekshirishlar talab qilinadi. Qizdirib ishlov berishning berilgan rejimlarini, oldindan zo'riqtirilgan konstruksiyalarda armaturaning taranglik darajasini nazorat qilib turish ham muhimdir.

Operatsiyalar bo'yicha nazorat qilish ehtimoli bor nuqsonning sabablarini o'z vaqtida aniqlash va sifatsiz qurilish konstruksiyalari chiqishining oldini olishga imkon beradi. Qabul qilish nazorati tayyor qurilish konstruksiyalari asosiy ko'rsatkichlarining shu buyumga taalluqli texnik shartlarga yoki GOSTlarga muvofiqligini tekshirib ko'rishdan iborat. Tayyor buyum ko'zdan kechiriladi, geometrik parametrlari o'lchanadi, buyumdagi betonning mustahkamligini aniqlash uchun nazorat namunalari

kublar sinab ko'riladi (buyumdagi betonning mustahkamligini buyumni buzmaydigan usullar bilan aniqlashga ruxsat etiladi). Teplotexnik talablar qo'yiladigan to'suvchi konstruksiyalarda yengil va g'ovak betonning zichlik hamda namlik qiymatlari normalanadi, shu sababli bunday hollarda mustahkamligidan tashqari ana shu ko'rsatkichlarini ham nazorat qilish zavr bo'ladi. Maxsus mustahkamlik qurilish konstruksivalarining darz ketmaslik va bikrligini tayyor buyumlarni sinash yo'li bilan vaqti-vaqtda nazorat qilib turishning muhim ahamiyati bor. Har bir tipdan, standartlar talablariga muvofiq ravishda, tanlab olinadigan buyumlar yemirilgunga qadar shunday sinovdan o'tkaziladi. Bunday sinovlar ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifatiga to'g'ri baho berishga imkon beradi. Buyumlarning mavjud konstruksiyasiga biror o'zgarish kiritishda yoki yangi boshlang'ich materiallardan foydalanishda, tayyorlanish sharoiti o'zgarganda va boshqa hollarda bunday sinovlar ayniqsa zarurdir. Yassi buyumlarda (plitalar, to'shamalar, devor panellari va h.k.) shaklining to'g'ri to'rtburchakligini nazorat qilish zavr bo'ladi. U diagonallarining uzunligi bir-biridan farq qilishga qarab baholanadi. Buyumlarning yassiligi va to'g'ri chizikli ekanligini ham tekshirish lozim. Buyumning yassilik darajasi buyumni to'rtta tayanchga yotqizish yo'li bilan tekshiriladi. Agar panel uchta tayanchga zich joylashib, to'rtinчисiga tegmay qolsa, tayanch bilan panel sirtigacha bo'lgan masofa buyumning yassimaslik darajasini ko'rsatadi. Buyumning yassi emasligi montaj aniqligini pasaytiradi va hatto mustahkamligini kamaytiradi, chunki tayanib turish sharoiti yomonlashadi. Buyumlar sirtining to'g'ri chizikli emasligi sirtning egri-bugri bo'lishiga olib keladi. Temir-beton buyumlarning sifatiga armaturaning va qo'yiladigan detallarning joylashish aniqligi katta ta'sir ko'rsatadi, muhofaza qatlamining qalinligiga qat'iy rioya qilish ayniqsa muhimdir. Armaturalarning joylashuvi magnit asboblar yordamida yoki boshqa usullar bilan nazorat qilinadi. Qurilish materiallari va konstruksiyalarining sifatini nazorat qilish usullarini uchta guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruhga tekshirishning buyumni buzmaydigan usullari kiradi, bu usullar material va konstruksiyalarning ishlatishga yaroqliligini saqlab qolishga imkon beradi. Bunday sinovlarda bilvosita xarakteristikalar aniqlanadi, ularga qarab buyumning holati va uning fizik-mexanik ko'rsatkichlan haqida fikryuritiladi. Buyum buzilmaydigan usullarda, odatda, sarfxarajat eng kam bo'ladi, ularni avtomatlashtirish va mexanizatsiyalash mumkin. Material va konstruksiyalarni, asosan, yemirilgunga qadar yuklash yo'li bilan mexanikstatik usullarda sinashdan iborat. Bunday sinovlarda material va buyumlarning haqiqiy xossalari mustahkamligi, deformatsiyalanuvchanligi, darz ketmasligi va boshqa ko'rsatkichlari aniqlanadi. Uchinchi guruh konstruksiyani, ya'ni imoratni hozirgi davrdagi foydalanish jarayonidagi sifatini aniqlash uchun matematik modellashtirish

usulidir. Bu yo'nalish juda yangi, samarali va tezkor bo'lib, imoratga hozir ta'sir etayotgan yuklar asosida, hozirgi muhitda paydo bo'lgan o'zgarish va yemirilishlarni inobatga olgan holda, konstruksiyalarning kuchlanish va deformatsiya holatini aniqlaydi. Yemirilmaydigan sinash usullari juda turli-tuman bo'lib, ularga quyidagilar kiradi: mexanik usullar (yuklash qurilmalari kiritish, rezonansli usullar); polarizatsion-optik usullar; akustik usullar (elastik tebranishlar parametrlarini ultratovush asboblari bilan aniqlash); magnitli usullar (induksion va magnit kukunli); radiatsion (radioizotoplardan, neytronlardan va tormozli nurlanishdan foydalaniladigan) usullar; elektr usullar (elektr sig'imini, elektr induktivligini va elektr qarshiligini aniqlash) va boshq. Mexanik sinash usullari mahalliy yemirilish, detormatsiyalanish va elastik urilib qaytish usullariga asoslangan. Bu usullardan eng ishonchlisi konstruksiyadan qirqib olingan po'lat yoki beton namunalarini bevosita sinashdan iboratdir. Betonning mustahkamligini aniqlashning kamroq mehnat sarflanadigan, lekin bilvosita usuli sindirib ajratib olish usulidir. Bunday usul ularning mohiyati beton tanasidan oldindan betonlangan po'lat ankerlarni tortib olish uchun zarur bo'lgan kuchni aniqlashdan iboratdir. Ana shu kuchning qanchaligiga qarab, darajalash egri chizig'i asosida betonning mustahkamligi aniqlanadi. Qurilish konstruksiyalarining turli xarakteristikalarini nazorat qilishda buzmaydigan boshqa usullar ham qo'llaniladi. Konstruksiyalarning sifati bir necha o'nlab ko'rsatkichlarga qarab baholanadi, shuning uchun zavod sharoitida mexanizatsiyalashgan maxsus stendlar yordamida nazorat qilish maqsadga muvofiqdir. Bunday stendlarda buyumlarning sifati avtomatlashtirilgan usulda kompleks nazorat qilinadi. Qurilish konstruksiyalarini yuklash usuli bilan sinash. Qurilish konstruksiyalarini yuklash usuli bilan sinab ko'rish mustahkamlik, bikrlik, darz ketmaslik kabi ko'rstakichlarini aniqlasligiga imkon beradi, ular integral xarakteristikalar hisoblanib, materialdan foydalanish sifatiga ham, ularni tayyorlashdagi barcha texnologik jarayonga ham bog'liq. Bunday sinovlar konstruksiyalari yalpi tayyorlashni boshlashdan oldin, yangi materiallarga yoki yangi tayyorlash texnologiyasiga o'tilganda, shuningdek, buyumlarning haqiqiy ko'rsatkichlari GOST lar talablariga va texnik shartlarga mos kelish kelmasligini aniqlash maqsadida vaqti-vaqti bilan o'tkazib turiladi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, qurilish konstmksiyalarini montaj qilishdan oldin qurilish obyektida ularning sifatini tekshirish maqsadida o'tkaziladigan yuqoridagi sinashlardan tashqari hollarda konstruksiyalar «ishda», ya'ni montaj qilingandan keyin va, hatto, binodan foydalanish boshlangandan keyin ham sinab ko'riladi. Konstruksiyalarni ana shunday o'z holicha sinashga inshootlar avariyasiga uchraydigan darajada zararlanganda, rekonstruksiya qilishda, yangi yoki qo'shimcha uskunalar o'rnatishda va boshqa hollarda ehtiyoj



tug'ilishi mumkin. Temir-beton buyumlarni yuklash yo'li bilan sinashning usul va vositalarini ko'rib chiqamiz. Ular GOST 8829-85 bilan belgilab berilgan. Davriy ravishda o'tkaziladigan nazorat sinovlar uchun konstruksiyalar quyidagi hisobdan tanlab olinadi: sinovlar orasidagi davrda tayyorlangan 250 dona hajmdan 1 tadan konstruksiya; 251—1000 dona hajmdan 2 dona; 1001—3000 dona hajmdan 3 donadan; 3000 donadan ortiq hajmdan 0,1% dan. Konstruksiyalarning yuklanish va tayanish sxemalari ishlatilish bosqichidagi ish sharoitlariga muvofiq qabul qilinadi. Erkin tayanadigan bir oraliqli hisoblangan to'sin va plitalar sinash vaqtida ikkita tayanchga tayanishi kerak, ulardan biri qo'zg'aluvchan bo'lishi lozim. To'plangan yukni taqsimlash to'sinlari orqali uzatishda to'sinlar ko'pi bilan ikkita tayanchga tayangan bo'lishi kerak (aks holda yuk bir me'yorda taqsimlanmasligi mumkin). Konstruksiyalarni sinashda yukni bosqichma-bosqich (oz-ozdan) qo'yib borish kerak, konstruksiyaning mustahkamligi va darz ketishga chidamliligini sinashda har bir bosqichda umumiy mo'ljallangan yukning ko'pi bilan 10% ini va bikrligini sinashda ko'pi bilan 20% ini qo'yish kerak. Har qaysi bosqichda yuk qo'yilgandan keyin konstruksiyani shu holatda kamida 10 minut, bikrlikka sinashda esa kamida 30 minut tutib turish kerak. Har bir bosqichda yuk qo'yilgandan keyin tutib turish vaqtida sinalayotgan buyumning tashqi yuzasi ko'zdan kechiriladi, paydo bo'lgan darzlar belgilab qo'yiladi, oraliq o'rtasidagi salqilik va tayanchning cho'kkanligi, darzlarning ochilish kengligi va tayanchlarning cho'kkanligi va h.k. o'lchanadi.

Konstruksiya holatini matematik modellashtirib aniqlash eng zamonaviy yondashish bo'lib, tez va kamxarajat usul hisoblanadi. Mutaxassislarda, loyiha institutlarida turli konstruksiyalarni turli sharoitlarga hisoblash bo'yicha kompyuter dasturlari mavjud. Bu dasturlardan yangi imorat loyihalayotgan davrda foydalaniladi, ulardan imorat baholanayotganda yoki uning texnik ahvoli va sifati aniqlanayotganda foydalanish mumkin. Kompyuter dasturlari iborat konstruksiyalarini matematik modelni ifodalab, real holdagi ko'rsatkichlarni, ya'ni uning elementlaridagi kuchlanishlar, deformatsiya va og'ishlarni sinq sifatida aniqlaydi hamda shu natijalar asosida sifat va iqtisodiy ko'rsatkichlar aniqlanadi. Imorat konstruksiyalarini sifat, iqtisodiy va texnik ko'rsatkichlarini aniqlashga bag'ishlangan kompyuter dasturlaridan biri — bu KROOUS kompleksi Sinov natijalariga qarab konstruksiyaning sifati haqidagi uzil-kesil xulosalar: mustahkamligi, bikrligi va darz ketishga chidamliligiga oid ma'lumotlar to'plamidan chiqariladi. Agar konstruksiya tanlangan sinovlarga bardosh bergan bo'lsa, u yaroqli deb hisoblanadi. Agar u biror ko'rsatkichga ko'ra yaroqsiz bo'lsa, u holda bunday buyumlarni kam yuklanishli inshootlarda foydalanish uchun tavsiya etiladi.



**Adabiyotlar ro'yxati:**

- 1.N.J. To'ychiyev «Bin ova inshootlar konstruksiyasi»
- 2.M.M. Miralimov «Arxitektura (bino inshootlar qurilish konstruksiyalari)»
3. X.M. Ubaydullayev, M .M . Inog'omova «Turar joy va Jamoat binolarini loyihalashning tipologik asoslari» Toshkent - 2009
- 4.M.M.Miralimov «Turar joy binolarini loyihalash asoslari» Toshkent-2008
- 5.P.Sh.Zohidov «Memor olami» Toshkent-1996

**A mental model is the modeling of the debate with the interlocutor**

**Jabbarova Sevara Shukhratovna**

Student of the Department of Political Science of the Uzbek University of  
Journalism and Mass Communications

[sevarajabborova17@gmail.com](mailto:sevarajabborova17@gmail.com) (+998992667733)

**Annotation:** The main issue in this article is about the rational model and its application in social, political economic directions. In general, a rational model is a quick understanding of the state of internal consciousness, which arises under the influence of an external situation that takes place in our thinking without noticing. A rational model can be the basis of individual behavior. It not only affects the external process, but also contributes to the formation of a person's consciousness. With the help of this proverb you will get acquainted with the processes of intelligent modeling.

**Keywords:** A mental model, internal and external perception, modeling, methodology, human character.

